

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
Z.M. BOBUR NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida

TARIX FAKULTETI
O‘ZBEKISTON TARIXI KAFEDRASI
5120300–Tarix (jahon mamlakatlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi
IV kurs bitiruvchisi
SOLIYEV BOBURNING

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: Rossiya imperiyasi davrida Farg‘ona viloyatidagi ijtimoiy – iqtisodiy
hayot**

Ilmiy rahbar:

TAJIMIRZAEV E.
katta o‘qituvchi

ANDIJON – 2018

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1. Rossiya imperiyasi tomonidan Fargʻona viloyati tashkil topishi va mustamlakachilik boshqaruvi tizimining qaror topishi.....	7
2. Fargʻona viloyati iqtisodiy hayotida paxtachilik sanoatining tutgan oʻrni va roli.....	22
3. Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida Fargʻona viloyatidagi ijtimoiy hayot.....	36
XULOSA.....	47
FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR ROʻYXATI.....	50

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Farg‘ona vodiysi hududining qulay tabiiy-geografik o‘rni va o‘ziga xos iqlim sharoiti, bu erda aholini qadimdan joylashib, o‘troq dehqonchilik va yarimko‘chmanchi chorvachilik bilan shug‘ullanib kelishiga zamin yaratgan. Vodiyning baland tog‘lar bilan tabiiy o‘ralganligi uzoq davrlar mobaynida siyosiy jihatdan uning boshqa mintaqalarga nisbatan mustaqil va barqaror bo‘lishini ta‘minlagan hamda ko‘plab etnik guruhlarining tarixiy migratsiyasining yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. Bu o‘z navbatida hudud aholisining murakkab etnik tarkibini vujudga kelishi va bu erda o‘ziga xos (lokal) tarixiy-madaniy muhitning shakllanishida muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Farg‘ona vodiysi nafaqat O‘zbekistonda, balki Markaziy Osiyoda yirik etnomuloqat va etnogenetik mintaqalardan biri hisoblanib, bu erda hunarmandchilikning rivojlanishi o‘ziga xos tarzda kechgan. Farg‘ona vodiysida milliy hunarmandchilikning to‘quvchilik, qo‘lolchilik, zargarlik, ko‘nchilik, yog‘ochga ishlov berish, temirchilik turlari rivojlangan.

XIX asrning 60-70 yillarida O‘rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan zabt etilishi mazkur hududdagi an‘anaviy siyosiy tuzum va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga jiddiy ta‘sir o‘tkazib, ziddiyatli o‘zgarishlarga olib keldi. Ayniqsa, sobiq Qo‘qon xonligi hamda qisman Buxoro va Xiva xonliklari erlarining bosib olingan hududlarida 1867 yilda tashkil etilgan Turkiston general-gubernatorligi zaminida bu o‘zgarishlar yaqqol ko‘zga tashlanadi. Mazkur hududda harbiylashtirilgan siyosiy-ma‘muriy boshqaruv tizimining tashkil etilishi o‘lkada mustamlakachilik tuzumini kuch bilan qaror toptirishga xizmat qildi, an‘anaviy davlatchilikni butkul tugatishga olib keldi. Ana shu sabablar bizni vodiylar shaharlari tarixini ob‘ekt qilib o‘rganishga undadi.

Mustaqillik sharoitida va tub islohotlarni amalga oshirish jarayonida milliy tiklanish, ma‘naviy yangilanish, milliy o‘zlik va o‘ziga xoslikni yaxlit tarzda anglab etgan, erkin demokratik tafakkurga ega bo‘lgan va mustahkam milliy g‘oya kuchi bilan birlashgan jamiyat a‘zolarini tarbiyalash vazifalarini hal etishda tarix fanining roli jiddiy ravishda ortmoqda. Jumladan, Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov ta’kidlab o‘tganidek, *«Tarix xotirasi, xalqning, jonajon o‘lkaning, davlatimiz*

hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o'zlikni anglashni, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi»¹.

O'zbekiston tarixining Farg'ona viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy va demografik qiyofasi bilan bog'liq masalalariga bugungi kun nuqtai nazaridan xolisona baho berish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Tarixdan ma'lumki, Farg'ona viloyati shaharlarining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy hayoti o'ziga xos rivojlanish, turg'unlik va tanazzul davrlarini boshdan kechirgan. O'z davrida Farg'ona viloyati shaharlarida ijtimoiy-iqtisodiy hayot ma'lum darajada rivojlanib, bu borada ko'p ming yillik tajribalar umumlashtirilgan holda o'ziga xos qadriyatlar shakllanishga ulgurgan.

Biz mazkur bitiruv malakaviy ishda **Rossiya imperiyasi davrida Farg'ona viloyatidagi ijtimoiy – iqtisodiy hayot** tarixini yoritishga harakat qildik.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Mustaqillik yillarida Farg'ona viloyat tarixini chorizm mustamlakachiligi davrini o'rganish bo'yicha bir qator kitoblar nashr yuzini ko'rdi². Ushbu kitoblarda Qo'qon xonligini CHor Rossiyasi tomonidan tugatilishi hamda Farg'ona viloyatining tashkil topishi. SHuningdek mustamlakachilik davrida Farg'ona viloyatining ma'muriy xududiy tuzilishi, mustamlakachilik boshqaruv tizimi, viloyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot tarixi bayon etilgan.

SHuning uchun bitiruv malakaviy ishda mustamlakachilik davridagi **Farg'ona viloyatidagi ijtimoiy – iqtisodiy hayot tarixini o'rganish** bugungi kun dolzarb masalalaridan biri sanaladi. Biz BMIda manba va adabiyotlar asosida ana shu masalalarni yoritib o'tishga harakat qildik.

¹ Каримов И. А. Ўзбекистон ХХІ аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари. —Т.: Ўзбекистон. 1997. — Б. 140.

² Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон Чор Россияси мустамлакачилиги даврида. Тузувчилар: Содиқов Ҳ., Шамсутдинов Р., Равшанов П. ва бошқ. Таҳрир хайъати: Азизхўжаев А. — Т.: Шарқ., 2000; Кўҳна ва навкирон Андижон. Масъул муҳаррир. Мадумаров Т. Муаллифлар: Шамсутдинов Р., Мамажонов М., Матбобоев Б., Бозоров Қ., Жумабоев И. - Т. “Шарқ”, 2010; История Андижана в документах и материалах (1876-1917 гг). Андижанский гос. Ун-т. им. Бабура, международный фонд научно-практический экспедиции «Мерос» («Наследие»); сост. Р.Т.Шамсутдинов, С.Хошимов, К.Базаров.- Ташкент: «Шарқ», 2012; Шамсутдинов Р.Т.Исҳоқов А.А. Андижон тарихидан лавҳалар. — Т.: “Sharq”, 2013. Шарафиддинов А. Фарғона вилояти тарихидан лавҳалар. (ХІХ аср охири – ХХ аср бошлари) I – китоб. — Т.: “Наврўз”, 2013.

Mavzuning amaliy ahamiyati. Vatanimiz tarixining mustamlakachilik o'tmishi oqibatlarini milliy istiqlool mafkurasini, yangicha yondashuv asosida tadqiq qilish, tarixiy haqiqatni tiklash tarixchilarning hozirgi kundagi muhim vazifasidir. Bu vazifaning ilmiy ahamiyati shundaki, chorizm mustamlakachilik tuzimi davrida amalga oshirgan imperiyacha iqtisodiy siyosatning natijasi haqida, Turkiston o'lkasining xususan Farg'ona viloyatining metropoliyaning paxta xom ashyo bazasiga aylantirilishi, xududda etishtirilgan paxtaning markazga tashib ketilishi to'g'risida ma'lumotlarni keltirish.

Mazkur bitiruv malakaviy ishida Farg'ona viloyatida Rossiya mustamlakachiligi davridagi ijtimoiy – iqtisodiy hayoti tarixi masalalari bayon qilingan.

Mavzuning maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishni bajarishda quyidagi maqsad va vazifalar qo'yilgan:

- Farg'ona viloyatida CHor mustamlakachiligi boshqaruv tizimining qaror topishini haqida umumiy tushuncha berish adabiyot va manbalar asosida;
- CHor mustamlakachiligi boshqaruv tizimini o'ziga xos tomonlari haqida ma'lumotlar berish;
- Mustaqillik yillarida Farg'ona viloyati tarixiga oid yaratilgan asarlarning sharhlash;
- Farg'ona viloyatining mustamlakachilik davrida ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayoti haqida ma'lumotlar keltirish;
- Farg'ona viloyatidagi kapitalistik munosabatlarni qaror topishini yoritish;
- Tovar – pul munosabatlarining vujudga kelishini tavsiflab berish;
- Farg'ona viloyatida paxta va ipakchilik sanoatining savdo munosabatlarining rivojlantirishdagi o'rni va rolini ochib berish.

Mavzuning ilmiy yangili. Farg'ona viloyatida mustamlakachilik boshqaruv tartibini qaror topishi, rus va chet el kapitalining kirib kelishi va Farg'ona viloyati shaharlarining mustamlakachilik boshqaruv tizimiga o'tishi

ishda ma'lumotlar asosida bayon etilgan. Ishda shuningdek Farg'ona viloyatining XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ma'muriy xududiy tuzilishi, viloyatlardagi uchastkalarining faoliyatlari ochib berilgan.

Xullas, mazkur bitiruv malakaviy ishimizda Farg'ona viloyatining Rossiya mustamlakachiligi davridagi tarixi xaqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan va bu ma'lumotlar tahlil qilishga harakat qildik.

Ishning tarkibiy tuzilishi. Bitiruv malakaviy ish kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati, taqdimot qismlaridan iborat.

1. Rossiya imperiyasi tomonidan Farg'ona viloyati tashkil topishi va mustamlakachilik boshqaruvi tizimining qaror topishi

Rus qo'shini zulmiga qarshi Po'latxon boshchiligi qo'zg'olon Qo'qon xonligida 1873- 1876 yillarda bo'lib o'tdi. Rus qo'shini va nihoyat Po'latxonning izidan borib, 1876 yilning 28 yanvarida Uchqo'rg'onni qurshab oladi. «Devordan birinchi bo'lib, — deyiladi bir rus manbasida, — kapitan Kuropatkin kirdi. O'rdada Po'latxonni qutqarish uchun jonini tikkanlar bilan qo'l jangi bo'ldi. Bu paytda 300 soldat va 4 to'p bilan etib kelib, darhol jangga tashlandi. Po'latxonning kuchlari sochilib ketdi. Bu jangda 5 mis to'p, ko'p qurol-aslaha va Po'latxonning mol-mulki, xazinasini o'lja olindi». SHundan keyin Po'latxon bir guruh ishonchli kishilari bilan CHavay degan joyga qochadi va shu erda rus hukumati vakillariga topshiriladi.

Bunda uning ashadsiy dushmanlaridan biri Mirzoqulning «xizmati»katta bo'ldi.¹

Po'latxon qo'zg'olonining bostirilishi imperiya poytaxti Peterburgda, xususan, imperator tomonidan mamnuniyat bilan qarshi olindi. 1876 yil 1 mart kuni Marg'ilon shahrida vatan ozodligi va mustaqilligi uchun jon olib, jon bergan xalq qahramoni, istiqlol jangchisi va etakchisi Mullo Ishoq (Po'latxon) dorga osib o'ldirildi. U bilan birga erk, ozodlik va mustaqillik uchun kurashgan 33 nafar yaqin safdoshlari ham o'ldirildi. Ruslar bu bilan cheklanmay, bosqinchilikka sarflangan xarajatlarni aholidan undirib olishgacha borib etdilar. Faqat birgina Marg'ilon bekligiga Kaufman tomonidan Po'latxonning yonini olganliklari uchun 500 ming so'm tovon solig'i solindi.

Rossiya imperiyasining asl va tub maqsadi Qo'qon xonligini — mustaqil davlatni qurol kuchi bilan bartaraf qilib, Rossiyaning guberniyalaridan biriga aylantirishdan iborat edi. 1876 yil 30 yanvarda Nasriddinbekning Qo'qon shahriga kelishi va bu erda uning rasman xon deb e'lon qilinishi rus ma'muriyatini sarosimaga solib qo'ydi. General Skobelev zudlik bilan Qo'qon xonligini to'liq bosib olish, hech bo'lmaganda ruslarga so'zsiz bo'ysunadigan hokimiyat o'rnatishni Turkiston general-gubernatoriga taklif etdi. Ayni paytda Sankt-Peterburgda turgan K.P.Kaufman 2 fevral kuni Toshkentga, uning vakolatini bajarib turuvchi general-mayor Kolpakovskiyga telegramma yo'llab, unda to'g'ridan-to'g'ri, ochiq-oshkora tarzida: «butun Qo'qon xalqining Rossiya fuqaroligini qabul qilish istaklarini qondirish uchun va xalqni boshqa yo'l bilan tinch- lantirish imkoniyati bo'lmaganligi sababli imperator hazratlarining farmonlariga binoan shu zahotiyoyq butun xonlikni Oliy hazratlari tasarrufiga olishni shaxsan Sizga topshiraman...», — deydi.¹

Kolpakovskiy 4 fevralda K.P.Kaufmandan yana telegramma oladi:

¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон Чор Россияси мустамлакачилиги даврида. Тузувчилар: Содиқов Х., Шамсутдинов Р., Равшанов П. ва бошқ. Таҳрир хайъати: Азизхўжаев А. — Т.: Шарқ, 2000, — Б. 173.

¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон Чор Россияси мустамлакачилиги даврида. Тузувчилар: Содиқов Х., Шамсутдинов Р., Равшанов П. ва бошқ. Таҳрир хайъати: Азизхўжаев А. — Т.: Шарқ, 2000, — Б. 174.

«Nasriddin taxtga o'tirgani bilan Qo'qonni tinchlantirishga u kafolat bo'la olmaydi, shuning uchun kechagi ko'rsatmani o'zgartirishning hojati yo'q». Bu ko'rsatmaga amal qilib Kolpakovskiy o'sha kuni general Skobelevga shunday buyruq yo'llaydi: «Oliy farmon bilan menga Qo'qon xonligini bosib olish yuklatildi, undan Farg'ona viloyati ta'sis etildi, vilo- yatni boshqarish Siz saodati oliylariga yuklatiladi...»²

Rus qo'shinlariga Qo'qon xonligini to'la bosib olish haqidagi buyruq shaxsan imperator Aleksandr II tomonidan berilgan.

Xullas, ruslar Qo'qon xonligiga yalpi hujum qilib, 1876 yil 7 fevralda Yakkamulla qishlog'iga etib keldilar. Nasriddinbek hech qanday qarshilik ko'rsata olmay, taslim bo'ldi. 8 fevral kuni ruslar Qo'qon shahriga kirib keldi. 18 fevralda harbiy vazir D.Milyutin Qo'qon xonligi tugatilib, uning o'rnida Farg'ona viloyati harbiy gubernatorligi tashkil qilinganligini e'lon qildi. Xalq qonini misoli daryo qilib oqizgan, yo'lida uchragan barcha shahar va qishloq- larning kulini ko'kka sovurgan, bola demay, ayol demay, qari demay barcha tirik jonni qilichdan o'tkazgan general M.D.Skobelev 1876 yilning 19 fevralida imperator Aleksandr II farmoni bilan yangidan tashkil etilgan Farg'ona viloyatining harbiy gubernatori etib tayinlandi.

Ruslar uchun milliy qahramon sanalgan general Skobelev shu tariqa o'zining yuksak martabalariga birma-bir ko'tarila boshladi. Bu general minglab farg'onaliklarning ozodlik uchun to'kilgan qonlari singgan zaminda rus qurolining shavkatini ko'targan shaxs sifatida ulug'landi.

1876 yil fevral oyidan Rossiya imperiyasi guberniyalari qatoriga viloyat sifatida qo'shib olingan Qo'qon xonligining chinakam hukmdori sifatida rasman e'lon qilingan general Skobelev minglab rus zobitlari uchun jasorat ramziga aylandi. Farg'ona viloyat harbiy gubernatori M. D. Skobelevning nomi yangi Marg'ilon shahriga berildi. Bu shahar uzoq vaqt Skobelev, mahalliy tilda «Iskobil» deb yuritildi.¹

² Ўша асар, – Б. 175

¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон Чор Россияси муштамлакачилиги даврида. Тузувчилар: Содиқов Ҳ., Шамсутдинов Р., Равшанов П. ва бошқ. Таҳрир хайъати: Азизхўжаев А. – Т.: Шарқ., 2000, – Б. 176.

Fargʻonani «Fargʻona viloyati» nomi ostida Turkiston general-gubernatorligi tarkibidagi rus chorizmiga qaramligi 1917 yilgi bolshevik inqilobiga qadar davom etdi.

Fargʻona viloyati 1976 yil 19 fevralda imperator Aleksandr II ning farmoni bilan barpo etildi. Farmonga asosan viloyatning tarkibi Qoʻqon, Margʻilon, CHimyon. Andijon, Mamangan. CHust va Oʻsh uezlaridan iborat qilib belgilandi.²

Keyinchalik, (1886 yil) “Turkiston oʻlkasini boshkarish toʻgrisidagi nizom” qabul qiliigandan soʻng CHimyon uezdi Margʻilon uezdiga, CHust uezdi Namangan uezdiga koʻshib yuborildi va Fargʻona viloyati 1917 yilgacha 5 ta uezdan iborat boʻldi.

Fargʻona viloyati oʻzinig ijtimoiy-iqtisodiy saloxiyati, axolining soni va obodligi bilan boshka hududlardan ajralib turardi.

XX asr boshlarida aholining soni jihatidan Turkiston general-gubernatorligida Fargʻona viloyati birinchi oʻrinda turgan. Aholi soni 1897 yildagi roʻyxat boʻyicha 1572214 kishini, 1906 yilda 1914178 kishini. 1911 yilga kelib esa 1950334 kishini tashkil etgan. Fargona viloyatining hududi 1883 yilda 83664 kv verst. 1900 yilda 86130 kv verst (Pomir hududi 40000 kv verst) boʻlgan.¹

Viloyatda hunarmandchilik, ichki va Tashki savdo. dehqonchilik va chorvachilik keng rivojlangan. Oʻrta hisobda Turkistoi oʻlkasida sgishgirilgai paxtaning 50-60 foizi va ipakning 90 foizi Fargona viloyatida etishtirilgan. Viloyat sanoat sohasida ham salmoqli oʻrinni egallagan. 1904 yilda zavodlar soni 309 ta, Sirdaryo viloyatida 183 ta va Samarkand viloyatida 93 ta boʻlgan. SHuningdek, viloyat neft va koʻmir kazib olishda ham oldingi oʻrinni egallagan. Turkiston oʻlkasida shakllangan ishchilar sinfining salmoqli qismi ham shu erda toʻplangan edi.

SHunday katta hududga ega boʻlgan viloyat 1917 yilgacha 5 ta uezdga boʻlingan boʻlib, oʻz navbatida uezdlar uchastka va volostlarga, volostlar qishloq jamoalariga boʻlingan. Oʻlkaga koʻplab ruslarning koʻchirib keltirilishi okibatida rus posyolkalarida ham qishloq jamoalari tashkil etilgan.

² Ўша асар, – Б. 12.

¹ Ўша асар, – Б. 12-13.

1900 yilda Fargona viloyatining 5 ta uezdida 99 ta volost va 602 ta kishloq jamoalari, 5 ta rus posyolkalari va qishloq jamoalari mavjud edi.

Quyidagi jadval volost va kishloq jamoalarining uездlar kesimida qanday tashkil etilganligini ko'rsatadi.²

№	Uездlar	Uездlarda		
		Volostlar	Qishloq Jamoalari	Rus posyolkalari
1	Marg'ilon	19	129	1
2	Qo'qon	23	137	-
3	Namangan	26	138	1
4	Andijon	19	115	2
5	O'sh (Pomir bilan birgalikda)	12	83	1
Jami		99	602	5

SHuni ham ta'kidlash lozimki, uездlar bir necha uchastkalarga bo'lingan. Uездlarni uезд boshliqlari, uchastkalarni uchastka pristavlari, volostlarni volost boshliqlari, qishloq jamoalarini oqsoqollar boshqarganlar.

Viloyatlarni rus armiyasi generallari shaxsan imperatorning o'zi tayinlagan xarbiy gubernatorlar boshqargan. Ular o'zlarida harbiy va fuqaro hokimiyatini mujassamlashtirganlar. Harbiy sohada viloyatlardagi qo'shinlar qo'mondoni, fuqaro ishlarida esa hokimiyat keng huquq va majburiyatlarga ega bo'lishgan. Barcha ma'muriy, politsiya va sud hokimiyati ham ular qo'lida jamlangan.¹

Har bir uезд o'z tarkibida shahar qishloqlari bilan uезд hokimiga bo'ysungan. Uезд boshlig'i viloyat harbiy gubernatori tavsiyaei bilan (bevosita general-gubernator tomonidan) lavozimga tayinlangan. Uезд boshliklari ma'muriy, politsiya va harbiy hokimiyatni o'zlarida birlashtirganlar. Uезд boshliqlari o'z hududidagi

² Шарафиддинов А. Фарғона вилояти тарихидан лавҳалар. (XIX аср охири – XX аср бошлари) I – китоб. – Т.; “Наврўз”, 2013. – Б. 13.

¹ Шарафиддинов А. Фарғона вилояти тарихидан лавҳалар. (XIX аср охири – XX аср бошлари) I – китоб. – Т.; “Наврўз”, 2013. – Б. 14.

aholidan xohlagan kishiga jarima solishlari va 7 kungacha qamab qo'yishlari mumkin edi. Uezdlar bir necha uchastkalarga bo'lingan. Fargona viloyati uездlari 20 ta uchastkaga bo'lingan edi. Uchastkalar uchastka boshliklari tomonidan boshqarilgan. Ularga ham o'z hududlarida mahalliy aholidan istagan odamga jarima solish (5 so'mdan 10 so'mgacha) va 3 kuigacha hibsda saqlab turish huquqi berilgan edi. Uchastka boshliqlari harbiy boshkaruvnig oxirgi bo'gini edi.¹

Ta'kidlash lozimki, aholi sonining ko'payishi, qishlok jamoalarida xo'jaliklar sonining ortib borishi natijasida viloyat gubernatorining buyrug'i bilan volostlar va qishloq jamoalarining soni ortib borgan. Chunki, volost asosini ming xonadondan ikki ming xonadongacha, ovul jamoalarini esa yuz o'tovdan ikki yuz o'tovga qadar aholi tashkil etgan. Masalan, viloyatda 1904 yilda 100 ta volost, 629 ta qishloq jamoalari, 1908 yilga kelib 103 ta volost, 642 ta qishloq jamoalari bo'lgan edi.

SHunday qilib, Qo'qon xonligi tugatilib, uning o'rniga tashkil etilgan Farg'ona viloyatida yangi ma'muriy- hududiy boshqaruv tizimi vujudga keltirildi. Bu tizim mustamlakachi mamuriy manfaatlariga mos kelardi. Bu hol o'lkada podsho Rossiyasi hukmronligini mustahkamlashga, o'lkani tizimli ravishda mustamlakalashtirishga xizmat qildi.

Harbiy gubernator M.D.Skobelevning buyrug'i asosida tuzilgan maxsus komissiya viloyatning sanitariya holatini tekshirib chiqdi. Harbiy gubernator komissiya xulosasi asosida Turkiston o'lkasi general-gubernatori K.P.Kaufmandan viloyat markazini Qo'qondan vodiya ichkarisiga ko'chirishga va buning uchun yangi shahar barpo etishga rozilik berishni so'raydi. General-gubernator 1876 yil 19 oktyabrda M.D.Skobelevning yuqoridagi xatiga "viloyat markazini va harbiy kuchlarning asosiy qismini Marg'ilon atrofiga ko'chirishga roziman. Yangi shahar va qal'a YOrmozor qishlog'i va uning yuqori tomoniga qurilishi maqsadga muvofiq"² deb rezolyusiya qo'ydi. Yangi shahar rejasini tuzish uchun harbiy injener Jilin bilan poruchik Sinkler Qo'qonga yuborildi. SHunday qilib, 1877 yil boshidan

¹ Ўша асар, ўша жойда.

² Шарафиддинов А., Ҳайдаров О. Янги Марғилон-Фарғона водийсида Подшо Россияси мустамлакачилик маъмурий-бошқарув тизимининг маркази ва таянчи. /“Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда” иккинчи Республика илмий анжумани материаллари. Фарғона – 2013 й. - Б. 175

boshlab Marg‘ilon shahri atrofida yangi viloyat markazi va qal’asini qurish tadbirlari ko‘rila boshlandi.

Biroq shahar qurish taraddudi boshlangan vaqtda Farg‘ona viloyatining birinchi harbiy gubernatori, yangi shahar qurishning tashabbuskori general M.D.Skobelevni 1877 yil fevral oyi boshlarida Rossiya-Turkiya urushining boshlanishi munosabati bilan harakatdagi armiyaga chaqirib olishadi¹. SHu tariqa rus-turk urushiga ketadi va Farg‘ona vodiysiga boshqa qaytib kelmaydi. Farg‘ona viloyati harbiy gubernatori lavozimiga shu paytgacha Amudaryo bo‘limi boshlig‘i lavozimida ishlayotgan general-mayor A.K.Abramov tayinlanadi.

A.K.Abramov harbiy gubernator lavozimida o‘z faoliyatini boshlaganidan so‘ng viloyatdagi ishlarni o‘rganib, yangi shahar qurilishi bilan bog‘liq hujjatlar bilan yaqindan tanishadi. U yangi shahar qurilishi rejalashtirilgan joy bilan tanishib, bu joyni ma’qul ko‘rmaydi.

1877 yil 24 fevralda general-mayor Abramov raisligida viloyatning yangi markazini qurishga joy tanlash uchun komissiya tashkil etiladi. Uning tarkibiga Marg‘ilon uezdi boshlig‘i kapitan Bikchurin, viloyat injeneri poruchik Korolkov, harbiy injener Jilin, harbiy gubernator yordamchisi poruchik Sinkler, Qo‘qondagi lazaret vrachi Preobrajenskiy va harbiy Okolkovlar kiritiladi². SHuningdek, komissiya ishida bosh shtab polkovnigi Korolkov ham ishtirok etadi. CHunki bu vaqtda u Farg‘ona viloyatiga xizmat safariga kelgan edi.

Komissiya o‘z ishini quriladigan yangi shahar va qal’a uchun M.D.Skobelev shaxsan ko‘rib tanlagan joyni ko‘rishdan boshladi. Komissiya Skobelev tanlagan joy shahar qurish uchun tor bo‘lganligi (2,5 kv. verst, bir verst 1,06 kmga teng) va uni kengaytirish uchun juda ko‘p mevali bog‘lar va uylarni buzishga to‘g‘ri kelishini, janubi-g‘arbiy tomoni esa suvsiz, toshloq erdan iboratligini hisobga olib, bu joyni yangi shahar qurish uchun noloyiq deb topadi. Komissiya Marg‘ilon shahrining

¹ Шарафиддинов А., Хайдаров О. Янги Марғилон-Фарғона водийсида Подшо Россияси мустанлакачилик маъмурий-бошқарув тизимининг маркази ва таянчи. /“Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда” иккинчи Республика илмий анжумани материаллари. Фарғона – 2013 й. - Б. 175

² Шарафиддинов А, Ташпулатов Г. Из истории возникновения и развития города Ферганы. // ФДУ, илмий хабарлар. 2002. 1-2 сон. – Б. 28.

sharqiy va g'arbiy tomonidagi erlarni ko'rib chiqadi. Ularni ham yangi shahar qurish uchun yuqorida ko'rsatilgan shart va talablarga javob bermaydi, deb hisobladi. SHundan so'ng komissiya Marg'ilon shahridan 7 verst masofadagi joyni yangi shahar va qal'ani qurish uchun yaroqli deb, topadi.

SHahar qurish uchun tanlangan hududning uzunligi 4,5 verst, kengligi 2,5 verst bo'lib, janubi-sharqiy tomondan jami 11,5 kv. verst maydondan iborat edi. SHahar quriladigan joyda Simtepa, CHarmig'on qishloqlari va 150 ta uy bo'lgan bir necha qo'rg'on joylashgan edi. Simtepa qishlog'i Marg'ilon soyning chap tomonida, CHarmigon qishlog'i esa soyning o'ng tomonida joylashgan edi. SHahar qurilishi uchun tanlangan maydon o'simliklar o'sishi va bog'dorchilik uchun qulay, unumli tuproqqa ega bo'lib, faqat janubiy tomoni birmuncha shag'al aralash qumli edi. Uchqo'rg'ondan chiqib keladigan Isfayram soyning suvi bilan SHohimardondan keladigan soy suvi qo'shilishidan hosil bo'ladigan Marg'ilon soyi bo'lajak shaharning ichidan oqib o'tar edi.

Komissiya quriladigan shahar uchun tanlangan joy haqidagi o'z xulosasini viloyat harbiy gubernatoriga taqdim etadi. Bu haqda general-mayor Abramov 1877 yil 8 mart kuni o'lka boshlig'iga telegraf orqali habar qiladi. Ertasiga, ya'ni 9 mart kuni Turkiston o'lkasi general-gubernatoridan yangi shahar qurish to'g'risida ruxsat olindi. Uning ruxsatnomasida "sizning viloyat shahrini qurish uchun tanlangan joy to'g'risidagi taklifingiz ma'qullandi, yangi shaharni qurilish uchastkalarga bo'lib chiqish ishlari uchun 3000 so'm mablag' ajratilishiga va shahar quriladigan joydagi 2 ta qishloq aholisini ranjitmasdan ko'chirishga ruxsat etaman", ¹ deyilgan edi.

SHuni ta'kidlash kerakki, Farg'ona vodiysining markazida yangi harbiy ma'muriy markaz bo'lgan shahar qurilishi Turkiston o'lkasi general-gubernatorining doimo diqqat markazida turgan. SHahar qurilishi bilan bog'liq har qanday katta-kichik masala general-gubernatorlik mahkamasi ruxsati bilan hal etilgan.

¹ Шарафиддинов А., Ҳайдаров О. Янги Марғилон-Фарғона водийсида Подшо Россияси мустанлакачилик маъмурий-бошқарув тизимининг маркази ва таянчи. /“Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда” иккинчи Республика илмий анжумани материаллари. Фарғона – 2013 й. - Б. 173

1877 yil 30 mayda Farg‘ona viloyat harbiy gubernatori Marg‘ilon yonida barpo qilinadigan yangi shahar qurilishi qoidalari loyihasini o‘lka general-gubernatori mahkamasiga yuboradi. General-gubernatorlik mahkamasi bu loyihani bir muncha tuzatishlar bilan 1877 yil 18 iyunda tasdiqlaydi va viloyat markazi nomini YAngi Marg‘ilon deb atashni maqsadga muvofiq deb topadi¹. Mavjud Marg‘ilon shahari Eski Marg‘ilon deb ataladigan bo‘ldi.

Rus mustamlakachilari Turkistonni qurol kuchi bilan zabt etgach bu erdagi milliy davlatchilik va uning davlat apparati, mahalliy hokimiyat organlarini boshdan-oyoq sindirib, uning o‘rniga o‘zlarining boshqaruv apparatini joriy ettirishgan. SHuni alohida qayd etish kerakki rus mustamlakachi ma’muriyati imperiyaning boshqa o‘lkalari boshqaruvidan farqli o‘laroq Turkistonda, jumladan Farg‘ona viloyatida ham boshqaruvni xarbiylashgan usulda olib borgan. Farg‘ona viloyatida boshqaruv mazmunan va shaklan xarbiylashgan tarzda amalga oshirilgan. O‘sha usul bilan boshqarish uchun Rossiya hukumati 1865 – 1886 yillar mobaynida 10 ta qonun loyihasini qabul qildi. Rossiya hukumati Turkiston xalqlarining “hoxish irodasi va roziligiga qarab qolmasligi” hamda “o‘z faoliyatida to‘la erkin bo‘lishlari zarurligi” alohida uqtirilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning ta’biri bilan aytganda rus mustamlakachilari o‘lkamiz mahalliy xalqlarini ikkinchi sortdagi xalqlar deb qaraganlar. Mana shu holatni 1876 – 1917 yillar mobaynida Farg‘ona viloyatida amal qilgan mustamlakachilik boshqaruvida yaqqol ko‘rish mumkin.

1867–1886 yillarda Turkiston general-gubernatorligi harbiy-hududiy birliklar – okruglar, bo‘limlar va rayonlarga bo‘lingan edi. Qo‘qon xonligi tugatilishi munosabati bilan Farg‘ona vodiysi markazi YAngi Marg‘ilon bo‘lgan Farg‘ona viloyati nomi bilan gubernatorlik tarkibiga kiritildi. Farg‘ona viloyati hududida Andijon, Qo‘qon, Marg‘ilon, Namangan, O‘sh va CHust uezdlari bo‘lib, ular bilan bir vaqtda CHimyov (1879 yildan Isfara) uezdi tuzilgan edi, uning hududi 1881 yili

¹ Шарафиддинов А., Хайдаров О. Янги Марғилон-Фарғона водийсида Подшо Россияси мустамлакачилик маъмурий-бошқарув тизимининг маркази ва таянчи. /“Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда” иккинчи Республика илмий анжумани материаллари. Фарғона – 2013- Б. 173

Qo‘qon va Marg‘ilon uездlariga bo‘lib yuborildi. Farg‘ona viloyatida eng quyi bo‘g‘in volost (vo‘lis, bo‘lis) va yuqorisi esa general-gubernator bo‘lgan. Genaral-gubernator harbiy vazirga bo‘ysungan. O‘z navbatida Turkiston genaral-gubernatori podsho yorlig‘i va umumimperiya qonunlariga ko‘ra, cheksiz hokimiyat va vakolatlarga ega bo‘lgan. Turkiston genaral-gubernatoriga o‘z navbatida Buxoro amirligi, Xiva xonligi itoat qilib unga yana Turkiston genaral-gubernatori Kengashi, Turkiston harbiy okrugi rahbariyati, general-gubernator mahkamasi, general-gubernator yordamchisi, Turkiston rayon muhofaza bo‘limi itoat qilgan. Harbiy gubernatorlar, shu jumladan Farg‘ona harbiy gubernatori general-gubernator mahkamasiga bo‘ysungan.

Viloyatlardagi mahalliy ma‘muriyatni harbiy gubernatorlar boshqargani yuqorida aytiladi. Ular, o‘z navbatida, shu viloyatda joylashtirilgan qo‘shin sonidan kelib chiqib, korpus yoki diviziya qo‘mondoni maqomiga ham ega bo‘lgan. Xodimlar Harbiy vazir, Ichki ishlar vaziri, Turkiston general-gubernatori bilan oldin kelishilgan holda podsho tomonidan lavozimlarga tayinlangan va bo‘shatilardi. Harbiy gubernator qo‘liga ma‘muriy, politsiya, sudlov va harbiy hokimiyat berilgan edi¹. Harbiy gubernatorga yordamchisi, Viloyat Mahkamasi boshlig‘i maslahatchilari, politsmeyster, viloyat mahkamasi boshlig‘i va tumanboshilar itoat qilganlar. Tumanboshilarga esa shahar hokimiyati boshliqlari va bo‘lim (uchastka) pristavlari bo‘ysungan.

Viloyat boshqaruvi raisi vazifasini harbiy gubernator yordamchisi bajarar edi. Viloyat boshqaruvlari ma‘muriy, sudlov, politsiya, moliya va xo‘jalik yuritish vazifalarni bajargan. SHu boshqaruv yana shaharlardagi bo‘limlarida takrorlangan.

Viloyatdagi uезд boshqaruvi esa uезд boshlig‘i, katta va kichik yordamchisi, shaharboshilari, ober-ofitser, uchastka (bo‘lim) pristavidan iborat edi. Pristavga volost boshlig‘i itoat etgan. Uезд boshlig‘i bir vaqtning o‘zida ispravnik, politsmeyster, zemstvo boshlig‘i, shahar hokimi, er-xizmati raisi ham bo‘lgan. Uезд

¹ Абдурахимова Н.А., Эргашев Ф.Р. Туркистонда чор мустамлака тизими... – Б.49.

boshlig'i betob yoki yo'q bo'lgan hollarda uning vazifasini yordamchilari bajarardi. Mamuriy ishlar bo'yicha yordamchi odatda, uezd kanselyariyasini boshqarardi¹.

Viloyatning birinchi harbiy gubernatori Qo'qon xonligini bosib olishda "katta jonbozlik ko'rsatgan" M.D. Skobelev tayinlandi. Turkiston general-gubernatori K.P. fon Kaufman buyrug'i bilan 1876 yil 18 martda viloyat boshqarmasi tuzilgan. Viloyat boshqarmasi boshqaruv, xo'jalik, sud, qurilish, o'rmon bo'limlaridan iborat bo'lgan. Keyinchalik Farg'ona viloyatida o'rtacha 4 yildan xizmat qilgan 10 kishi almashgan. Bular – A.K. Abramov, N.A. Ivanov, N.I. Korolkov, Povalo-SHviykovskiy, CHaykovskiy, G.A. Arendarenko, Susanini, V.I. Pokatila, A.I. Gippius.

Harbiy gubernatorlar, odatda, O'rta Osiyo bo'ylab harbiy yurishlarda o'zini ko'rsatgan, Turkistonning tinch shahar va qishloqlarini ishg'ol qilishda "alohida mahorat" ko'rsatgan ofitserlardan tayinlanar edi. "Ana shundan 5-6 yillik xizmat davomida poruchik va shtabs-kapitanlar general-mayor yoki general-leytenantga aylanishardi. Ularning maoshi bir yilda 12 mingdan 15 ming rublgachani tashkil etar, bu esa Markaziy Rossiyadagi gubernatorlarnikidan 2 baravar ko'p edi"².

Rus ma'muriyati tarkibida avvallari asosan dvoryanlar, XX asrning boshlariga kelib turli tabaqa vakillari, chalasavod va layoqatsiz kishilarni ham ishga qabul qilingan hollar ham uchraydi. Savodxonlik jihatidan mustamlakachi amaldorlari oliy ma'lumotli, o'rta va eng quyi ta'lim muassasalarini bitirib chiqqan yoki uyda ta'lim olgan shaxslar, uy ta'limi esa grammatika va arifmetikaning to'rt amalni bilishdan iborat bo'lardi.

Turkiston o'lkasi va viloyatlarida ishlayotgan barcha amaldorlarning oylik yoki yillik maoshlari markaziy Rossiya guberniyalarida ishlayotgan shu amaldagi chinovniklardan 2 baravardan 10 baravargacha ko'p bo'lgan¹. Boshqaruv tuzilmalariga nisbatan ijtimoiy sohada mustamlakachilar hukumati tomonidan

¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон Чор Россияси мустамлакачилиги даврида. Тузувчилар: Содиқов Х., Шамсутдинов Р., Равшанов П. ва бошқ. Таҳрир хайъати: Азизхўжаев А. – Т.: Шарқ, 2000, – Б. 185.

² Абдурахимова Н.А., Эргашев Ф.Р. Туркистонда чор мустамлака тизими. – Б.172.

¹ Масалан уезд бошлиғи йилида 4 минг рубл олган, ёрдамчилари 2-2,5 минг рубл, участка приставлари 1,5 дан 2 минг рублгача маош олган.

amaldorlar chuqur tomir otishi va “Turkiston”ni tark etmasligi uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berildi. Hukumat farmoyishiga ko‘ra barcha rus amaldorlariga xizmatning birinchi besh yili uchun asosiy maoshning 20foiz ni, ikkinchisi uchun 40foiz ni, uchinchisi uchun 75foiz ni tashkil etuvchi qo‘shilib beruvchi maosh ham tayinlangan edi. O‘lkada 20 yil xizmat qilganlar esa maoshning teng yarmida, 25 yil xizmat qilganlar esa butun maosh miqdorida nafaqa olishgan. Har yili 28 kun, bir yarmi yilda bir marta 2 oy va uch yil mobaynida bir marta 4 oy, faqat vataniga yoki xorijga jo‘nab ketganida ta’til berilar edi². Bundan tashqari ham amaldorlar maqom va darajalariga qarab boshqa imtiyozlarga ham ega bo‘lishgan.

Viloyatlardagi uezd va volostlarda shtabs-kapitanidan to polkovnik unvoniga ega bo‘lgan zobitlar xizmat qilishgan. Ular Rossiyaning markaziy shaharlardan, ichki guberniyalaridan, asosan harbiy bilim yurtlarini turli shaharlarda va turli harbiy yo‘nalishlarda o‘qigan kishilar bo‘lgan. Uezd boshliqlarining yordamchilari va uchastka pristavlari har xil – dvoryan, meshchan, ruhoniylar tabaqalaridan chiqqan edilar. Ular orasida o‘quv yurtlarida to‘liq kursni tugatmagan, ammo, odatda, Turkiston harbiy okrugi huzurida ofitserlikka o‘tkazishda imtihonlarni topshirgan kishilar ham uchraydi.

Viloyat boshqarmasiga 1867 yilgi “Nizom” loihasi muvofiq viloyatdagi fuqarolik ishlari bilan mashg‘ul bo‘lish topshiriladi. 1876 yil 14 noyabrda Kaufman farmoniga ko‘ra viloyat boshqarmasi faoliyatida 1873 yilgi Nizom loyihasi bo‘yicha ish yuritish joriy qilinadi. SHu bilan o‘lkada mustamlakachilik tuzumini mustahkamlash siyosati olib borilib, erli aholi ustidan nazorat kuchaytirildi. Sud ishlarida oldingi 1867 yilgi Nizom loyihasi tartiblari saqlanib qolgan edi¹.

Sud, nazorat va g‘azna palatasi organlari tomonidan ham uezd boshliqlari sha’niga ularning so‘rovlarini inobatga olmaslikka va ish yuritish yomon tashkillashtirilganiga ishora etuvchi ko‘plab e’tirozlar bo‘lgan. 1895 yili Farg‘ona viloyatining besh uezdi taftishi bo‘yicha hisobotlarda ish yuritish qonun talab

² Абдурахимова Н.А., Эргашев Ф.Р. Туркистонда чор мустамлака тизими. – Б.207.

¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон Чор Россияси мустамлакачилиги даврида. Тузувчилар: Содиқов Х., Шамсутдинов Р., Равшанов П. ва бошқ. Таҳрир хайъати: Азизхўжаев А. – Т.: Шарқ., 2000, – Б. 195.

qiluvchi tartibda emasligiga, boshqaruv, ayniqsa pul muomalasi boshqaruvi katta tartibsizlikda ekanligi ko'rsatilgan. 1908 yili Namangan uezd boshqaruvida hali 1882 yildayoq o'tkazilgan nazorat palatasi sud chegirmalarining 47 tasi ijro etilmagani aniqlangan².

Uezd boshliqlari volost boshqaruvchilarini tayinlash va ishdan olish huquqidan ham o'z manfaatlari uchun keng foydalanishgan. Farg'ona viloyati volost boshqaruvchilari ro'yxatlarining 1903 yil 1 sentyabrdagi ma'lumotlariga qaraganda, Andijon uezdidagi 20 volost boshqaruvchisidan 15 nafari, Marg'ilon uezdida 19 tadan 14 nafari, Qo'qon uezdida 23 tadan 12 nafari, Namangan uezdida 31 tadan 17 nafari tayinlovga ko'ra ishlagan, O'sh uezdida esa 12 uezd boshlig'idan 10 nafari hech qanday saylovsiz tayinlangan edi. SHu ma'lumotlarni keltirgan K.K.Palen soxtalashtirilgan saylovlarni qoralab "harakat vakolatlari doirasi va o'lkaning mahalliy va rus aholisiga nisbatan jazolash huquqlarining kengligi mahalliy ma'muriyat orasida korrupsiya va suistemol qilish hollarining kuchayishiga katta yo'l ochib berdi", deya tan olishga majbur bo'lgan edi.

Mustamlakachilikning salbiy oqibatlaridan biri bu ichkibozlik, tamaki chekishning keng tarqalishi, fohishalikning avj olishi va teri-tanosil kasalliklarning tarqalishi bo'lgan. Bunday qusurlar o'sha davr matbuoti sahifalarida ham keng yoritilgan.

31 avgust 1905 yili Andijon xo'jalik boshqarmasi o'z majlisida shaharda 1906 yili kuchli ichimliklar sotadigan muassalalar ochilishi masalasini muhokama qilgan. Majlisda Andijon zilzilasidan keyin qurilgan 115 uydan, 38tasi spirtli ichimliklar sotish uchun moslashtirilgani aytilgan. "Barcha bu muassasalarning savdosi juda jo'shqin va chaqqon va, albatta, ular faqat rus aholiga emas, balki olti minglik mahalliy aholiga xizmat ko'rsatadi. YOsh avlod yoppasiga ichadi. Ular bunga shirkatlardan olingan zakalat, otalari va vorislari pullarini ham sarf etadilar. Bunday holat umuman qoniqarsiz, chunki bu axloqan pok bo'lgan qolgan mahalliy aholini bizga qarshi qilib qo'yadi. Bunday muassasalarning 2/3 qismi

² Абдурахимова Н.А., Эргашев Ф.Р. Туркистонда чор мустамлака тизими... – Б.214-215.

kavkazliklardan bo'lmish gruzin va armanlarga tegishli. Ular har qanday vositalardan foydalanib erli aholini shu joylarga jalb qilmoqchi bo'ladilar. Hofizalar, raqosalar, suyuqoyoq ayollar ularning xizmatida", deyiladi majlis bayonnomasida. Majlisda qatnashgan doktor kollej maslahatchisi Mali esa oxirgi bir yarim yilda mahalliy aholi o'rtasida teri-tanosil kasalliklarning ancha ko'payganini aytgan. Natijada rus ma'muriyati, shaharlarning yangi qismlarida spirtli ichimliklari sotadigan do'kon va magazinlar sonini kamaytirishga harakat qilgan.

Harbiy gubernatorga yordamchisi, Viloyat Mahkamasi boshlig'i maslahatchilari, politsmeyster, viloyat mahkamasi boshlg'i va tumanboshilar itoat qilganlar. Tumanboshilarga esa shahar hokimiyati boshliqlari va bo'lim (uchastka) pristavlari bo'ysungan. Viloyat boshqaruvi raisi vazifasini harbiy gubernator yordamchisi bajarar edi. Viloyat boshqaruvlari ma'muriy, sudlov, politsiya, moliya va xo'jalik yuritish vazifalarni bajargan. SHu boshqaruv yana shaharlardagi bo'limlarida takrorlangan. Viloyatdagi uezd boshqaruvi esa uezd boshlig'i, katta va kichik yordamchisi, shaharboshilari, ober-ofitser, uchastka (bo'lim) pristavidan iborat edi. Pristavga volost boshlig'i itoat etgan. Uezd boshlig'i bir vaqtning o'zida ispravnik, politsmeyster, zemstvo boshlig'i, shahar hokimi, er-xizmati raisi ham bo'lgan. Uezd boshlig'i betob yoki yo'q bo'lgan hollarda uning vazifasini yordamchilari bajarardi. Mamuriy ishlar bo'yicha yordamchi odatda, uezd kanselyariyasini boshqarardi. Viloyatning birinchi harbiy gubernatori etib Qo'qon xonligi bosib olishda "katta jonbozlik ko'rsatgan" M.D.Skobelev tayinlandi. Turkiston genaral-gubernatori K.P. fon Kaufman buyrug'i bilan 1876 yil 18 martda viloyat boshqarmasi tuzilgan. Viloyat boshqarmasi boshqaruv, xo'jalik, sud, qurilish, o'rmon bo'limlaridan iborat bo'lgan. Keyinchalik Farg'ona viloyatida o'rtacha 4 yildan xizmat qilgan 10 kishi almashgan. Bular – A.K.Abramov, N.A.Ivanov, N.I.Korolkov, Povalo-SHviykovskiy, CHaykovskiy, G.A.Arendarenko, Susanini, V.I.Pokatila, A.I.Gippius. Harbiy gubernatorlar, odatda, O'rta Osiyo bo'ylab harbiy yurishlarda o'zini ko'rsatgan, Turkistonning tinch shahar va qishloqlarini ishg'ol qilishda "alohida mahorat" ko'rsatgan ofitserlardan tayinlanar edi. "Ana shundan 5-6 yillik xizmat davomida poruchik va

shtabs-kapitanlar general-mayor yoki genaral-leytenantga aylanishardi. Ularning maoshi bir yilda 12 mingdan 15 ming rublgachani tashkil etar, bu esa Markaziy Rossiyadagi gubernatorlarnikidan 2 baravar ko‘p edi”¹.

Harbiy gubernatorlar, eng avvalo, o‘lka genaral-gubernatori amir va farmonlarini kechiktirmasdan bajaruvchi itoatkor amaldorlar edi. Ayni mahalda ular ma’lum darajada mustaqil ham edilar. Viloyat hokimlari zo‘ravonlik va qonunbuzarliklarga keng yo‘l ochgan edilar.

Viloyat boshqarmasining mahkamasi, uezd va volostlarda faoliyat ko‘rsatilgan amaldorlar ichida mahkama boshqaruvchisi alohida maqomga ega bo‘lgan. Qoida bo‘yicha, bular Rossiya mansablar tabelida V klassdan past bo‘lmagan amalni egallagan rus genarallari yoki polkovniklar bo‘lgan. Viloyat boshqarmasi shtati ham turli amaldor va oylik oluvchilar hisobidan kattalashib ketgan edi. Ularning faoliyati aslida hech qanday nazoratga tortilmas va tez orada ijro etuvchi amaldordan farmon beruvchi amaldorga aylanishardi.

2. Farg‘ona viloyati iqtisodiy hayotida paxtachilik sanoatining tutgan o‘rni va roli

CHor Rossiyasi tajovuzining asosiy sabablaridan biri o‘zining to‘qimachilik sanoatini paxta xom ashyosi bilan ta’minlashdan iborat edi. CHor xukumati tobora o‘sib borayotgan sanoatning paxgaga bo‘lgan zhtiyojini qondirish maqsadida Turkistonda paxtachilikni rivojlantirishga qaratilgan choralarni amalga oshirib bordi. Bu sohada, ayniqsa, Farg‘ona vodiysida muhim ishlar kilindi. O‘zbek paxtasini rus to‘qimachilik sanoatining talablariga moslashtirishni va daromadni oshirishni ko‘zlab, Amerika paxta navini o‘lkada iqlimlashtirishga harakat qilganlar.

Bu davrda sanoatning eng yirik soxasi paxta tozalash sanoati bo‘lib, o‘lkadagi paxta tozalash zavodlarining ko‘pchiligi aynan Farg‘ona viloyatida joylashgan edi. O‘lkada, amerika paxta navlari tarqalmasdan va paxta tozalash

¹ Абдурахимова Н.А., Эргашев Ф.Р. Туркистонда чор мустамлака тизими... – Б.172.

zavodlari qurilmasdan ilgari, mahalliy paxta hom ashyosi tolasini chigitidan ajratish qo'lda harakatga keltiriladigan yog'och uskunalar, ya'ni charx(chag'riq)lar yordamida amalga oshirilgan.

Turkiston o'lkasida amerikadan keltirilgan paxta navlari mahalliy sharoitlarga moslashtirilib, paxta hosildorligi ortdi. Natijada o'lkada birin-ketin paxta tozalash zavodlari barpo qilindi. Farg'ona viloyatida paxta tozalash zavodlarini qurilishi va faoliyati tarixi bir qator ilmiy adabiyotlarda atroflicha yoritilgan. Paxta tozalash zavodlarining egalari asosan rus va chet ellik savdogarlar va yirik er egalari bo'lgan.

1881 yilda Qo'qon shahrida birinchi paxta tozalash zavodi qurildi. Viloyat boshqarmasiga Qo'qon uezdi boshlig'i nomidan taqdim etilgan 1881-1882 yillar uchun hisobotda uezd bo'yicha mavjud fabrika va zavodlarni soni va turlari ko'rsatilgan. 1881 yilda Qo'qon uezdida 2 ta paxta tozalash va toylash zavodi bo'lib, paxta tolasini toylash qo'l kuchida amalga oshirilib, 11 nafar ishchi ishlagani holda zavodlarni ishlab chiqarish quvvati 1300 rublni tashkil etgan. 1882 yilda esa aynan shu zavodlarda 12 ta ishchi mehnat qilib, korxonalarni ishlab chiqarish quvvati 1700 rublni tashkil etgan. Aynan shu hisobotga ko'ra, uezdda 1882 yildan faoliyat yurita boshlagan yana bitta paxta tozalash zavodida esa paxta tolasini gidravlik usulida toylanib, bu zavodda 32 nafar ishchi mehnat qilib, shu yili 37.583 pud 17 funt paxta tolasini ishlab chiqarilgan¹.

Farg'ona vodiysida, 1879 yilda birinchi marta yangi navlar Namangan uездining CHust qishlogida zikr ko'rildi. Birok birinchi tajriba ijobiy natija bermadi. Chunki ekilgan paxta navlari (seya islatilgan) serhosil bo'lsa-da, kechpishar edi.

1880 yilga kelib, CHust uездida ko'rgazmali tajriba uchastkasi tashkil etilib, paxtaning 20 dan ortiq amerika navlari (king, upland, triumph, russels, florida) sinab ko'rildi. Bulardan upland va king navlari Farg'onaning ob-havosiga mosligi, mahalliy paxta navlariga nisbatan serhosil ekanligi aniqlandi. Tajriba uchastkasida ekilgan mahalliy paxta navlari o'rtacha har desyatnadan 35-40 pud, amerika

¹ Мирзаев А. Мустамлака даврида фарғонадаги сиёсий жараёнлар. /“Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда” иккинчи Республика илмий анжумани материаллари. Фарғона – 2013 й. - Б. 244

navlaridan esa 70-75 pud hosil olindi. Yangi paxta navlarini mahalliy paxta navlariga nisbatan afzalligi aholi o'rtasida targ'ibot qilina boshlandi. Lekin dehqonlar bu yangilikka dastlab shubxa bilan karadilar.²

Dehqonlarni qoniktirmagan asosiy sabablardan biri, Amerika paxtasini qo'l chigirigi bilan tozalashda chigitning toza ajralmasligi edi. Rus mu'muriyati, sanoat egalari, firmalar paxtani chigiti bilan sotib olishga va'da berdilar.

Bundan tashqari, 1880 yildan 1884 yilgacha-yangi nav paxta urug'larini ommalashgungacha bepul tarqatib turdilar.

1884 yildan boshlab, Amerika paxtasiga boshqa qishloq xo'jalik maqsulotlariga nisbatan engil solik solinadigan bo'ldi. Ulkada qishloq xo'jalik ekinlarining bir desyatinasidan olinadigan o'rtacha daromad: makkajo'xoridan 36, lalmikor bug'doydan-21, sugoriladigan bug'doydan-41, bedadan-80, paxtadan esa 100-200 so'mga teng edi. Lekin ulardan olinadigan soliqlar bir xil bo'ldi. Amerika navlarini rivojlantirishda tashkil etilgan urug'chilik va ko'rgazmali tajriba uchastkalari katta rol o'ynadi. 1880-1900 yillar ichida Namangan uездida Ko'l, Chust, Qizil ravotda. Andijon uездida Jalolobod, Oyim, Amirbek, Margilon uездida Kirmachi, Arabmazor, Qo'kon uездida Ultarma kabi agronomiya tajriba plantatsiyalari tashkil etilgan edil

Bu tajriba stansiyalari aholi o'rtasida yangi paxta navlarining afzalligini tashviqot qilish, paxga maydonlarini o'g'itlashning yangi metodlarini aholiga etkazish hamda qishloq xo'jalik texnika vositalarini joriy etishni vazifa qilib qo'ygan edi.

Amerika navlari ustidan olib borilgan birinchi muvaffaqiyatli tajribalar natijasida vodiyni hamma rayonlarida qisqa vaqt ichida amerika navi ekila boshladi. Masalan, 1885 yilda 1000 desyatina, 1886 yilda 12000 desyatina, 1887 yilga kelganda 13200 desyatina erga yangi nav paxta ekilib, Amerika paxta iavi ekilgan maydonlarni yildan-yilga ortib borganligini 1-jadvaldan bilishimiz mumkin.

² Шарафиддинов А. Фарғона вилояти тарихидан лавҳалар. (XIX аср охири – XX аср бошлари) I – китоб. – Т.: “Наврўз”, 2013. – Б.17.

1 -jadval¹

Yillar	Margʻi Lon	Qoʻqon	Andijon	Namangan	Viloyat boʻyicha
1888	2500	2100	5200	4300	14100
1890	5500	4300	12500	10200	32500
1892	12800	8800	32800	18800	72200
1894	11500	8600	30000	17600	67600
1896	25300	14400	47400	27800	115700
1898	20000	10000	41500	24400	95500
1900	34500	30500	56500	42500	174000
1906	54215	25409	50865	37317	167736
1909	59092	31517	65509	36945	193063
1911	84474	39493	76252	44428	244705

Jadvaldan koʻrinib turibdiki, viloyatda 1888 yilda hammasi boʻlib 14100 desyatini maydonga amerika navli paxta ekilgan boʻlsa, 1911 yilga kelib bu koʻrsatkich 244705 desyatina ga etgan yoki viloyat mikiyosida 23 yil ichida Amernka navli paxta ekilayotgan maydonlar mikdori salkam 17.5 barobarga ortgan.

Fargʻona viloyatida paxtachilikni rivojlanishi dastlab Amerika paxta navi maydonlarining kengayib borishi hisobiga boʻlgan.

2-jadval¹

Yillar	Amerika paxta navi maydoni (desyatina hisobida)	Mahalliy paxta navi maydoni (desyatina hieobida)	Viloyat boʻyicha (desyatina hisobida)
1888	15008	19661	34669

¹ Шарафиддинов А. Фарғона вилояти тарихидан лавҳалар. (XIX аср охири – XX аср бошлари) I – китоб. – Т.; “Наврўз”, 2013. – Б.19

¹ Шарафиддинов А. Фарғона вилояти тарихидан лавҳалар. (XIX аср охири – XX аср бошлари) I – китоб. – Т.; “Наврўз”, 2013. – Б.20

1890	32492	18649	53141
1892	72588	17196	89784
1894	67696	14644	82338
1896	1 15727	19799	128726
1898	95544	10686	106230
1900	174026	12300	19326
1906	167736	12277	180013
1909	193063	10781	203844
191 1	244705	12840	257545

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, amerika navli paxta maydonlarining o‘sib borishi jarayonida maxalliy paxta maydonlarining qisqarib borayotganligini kuzatish mumkin. 1888 yilda mahalliy nav paxta maydoni 19661 desyatinani tashkil etgan bo‘lsa, 1911 yilga kelib 12840 desyatinani tashkil etgan.

XIX asrning 90-yillari oxirida rus mutaxassisleri madaniy o‘g‘itlar-superfosfat, azot, fosfordan foydalanishning progressiv metodlari va ahamiyatini mahalliy aholiga ko‘rsatib, bu sohadagi tajribalarni omma orasiga yoya boshladilar.

Vegitatsiya yo‘li bilan hosilni ko‘tarish ishlari ham omma o‘rtasida tashviqot kilindi. Namunali urug‘lik etkazuvchi plantatsiyalarni tashkil etish vodiya paxta sifatini yaxshilash sohasida qilingan muxim ishlardan biri bo‘ldi. Mazkur nlantatsiyalar paxta urug‘larini yaxshilash sohasida kagta ishlar olib bordilar.

Ilgarigidek galla ekinlari kabi qo‘l bilan sochib emas, balki egat usulida ekish yo‘li bilan paxta oralariga ishlov berishni osonlashtirish yo‘llari joriy etila boshlandi. Egat usulida ekish yangi progressiv metod bo‘lib, u xo‘kiz, ot qo‘shlari va turli qishloq xo‘jalik texnikalari yordamida ishlashga yo‘l ochdi.

YAngi qishloq xo‘jalik texnikalari, ayniqsa, plug bilan xaydalib ekilgan paxtadan omoch bilan xaydalib ekilgan paxtaga nisbatan bir necha marta ortiqhosil olingan'.

Masalan, 1898 Namangan paxtachilik uchastkasida plug bilan ishlov berilgan har bir desyatina erdan 110 pud, omoch bilan ekilgan har bir desyatina erdan esa o‘rtacha 55-60 pud hosil olingan.

90-yillarning oxiriga kelib upland, ko‘k chigit, king kabi paxta navlaridan 75-80 pud dan hosil olinib boshladi. Bu navlar sifatli bo‘lishi bilan birga vaqtida pishib etiladi, Farg‘onadagi ba‘zi rayonlar, chunonchi, Andijon uezdining Asaka, Qora suv, Oyim; Margilon uzdining QJ‘va, Y Akkatut, Olatiariq; Namangan uszdining CHust, To‘raqo‘rgon kabi volost dehqonlari erlarga ishlov berish, texnika va o‘g‘itlarning progressiv metodlaridan foydalanish natijasida o‘rtacha bir desyatina er dan 70-75 pud, alohida uchastkalardan 100-115 pud hosil ola boshladilar. 1880-1890 yillar ichida Farg‘ona viloyati bo‘yicha umumiy o‘rtacha hosil 50-55 pudga etdi

Farg‘ona viloyat boshqarmasi 1889 yilda savdo va manufakturalar departamentiga viloyatdagi paxta tozalash zavodlari to‘g‘risida axborotlarni ma‘lumotnoma tarzida taqdim etgan. Ushbu hujjatlarda har bir zavodning faoliyatiga oid to‘la ma‘lumot berilgan. Masalan, Qo‘qon shahrini Eshko‘prik mavzesida joylashgan paxta tozalash va toylash zavodini egasi toshkentlik 1 - gildiya¹ savdogari S. I. Laxtin bo‘lib, ish boshqaruvchisi esa toshkentlik tadbirkor I.N.Alienov bo‘lgan. Zavodda 10 nafar ishchi mavsumiy (sentyabrdan aprelgacha)ishlab, ish vaqti 10 soat davom etgan. Har bir ishchi kuniga 25 tiyindan, oyiga esa 8 so‘mdan ish haqi olgan. 1889 yilda 41.1157 pud (6.876 so‘mlik) paxta tozalanib, shundan 9.821 pud (11.375 so‘mlik) tola toy qilingan. Korxonada bitta 20 ot kuchiga ega suv kuchida ishlaydigan dvigatel, 6 ta paxta tozalash mashinasi ya‘ni jin va uchta paxtani toylash uchun qo‘l kuchida ishlatiladigan vintli press bo‘lgan. Paxta tolasi toy qilingan holda Moskvada sotilgan¹.

Namangan uzd boshlig‘ini Farg‘ona viloyati harbiy gubernatori nomiga 1893 yil 25-mart kuni 2436-sonli rasmiy xati orqali yuborgan bildirgisi, Farg‘ona viloyati boshqarmasida 1893 yil 6 aprelda 2628 raqami bilan qayd etilib, Namangan uzd didagi fabrika va zavodlarni 1892 yildagi faoliyati to‘g‘risida ma‘lumotnomalar taqdim etilgan. Masalan, 2-gildiya savdogari I.I.Keberlega tegishli bug‘ kuchida harakatlanadigan paxta tozalash zavodi Namangan shahrini Skobelev ko‘chasida

¹ Чор Россиясида савдогарларнинг бойлигига қараб бериладиган даража

¹ Мирзаев А. Мустамлака даврида фарғонадаги сиёсий жараёнлар. /“Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда” икинчи Республика илмий анжумани материаллари. Фарғона – 2013 й. – Б. 245

joylashgan bo‘lib, unda 25 ta ishchi ishlab, 4 ta jin va 1 ta vintli pressda 20450 pud paxta tolasi ishlab chiqarilgan. Qo‘qonlik Sultonmurodbek Xudoyorbekovga tegishli suv kuchida ishlaydigan paxta tozalash zavodi Namangan uездini To‘raqo‘rg‘on qishlog‘ida joylashgan bo‘lib, korxonada 18 nafar ishchi ishlab, 3 ta 60 arrali jinda 15000 pud paxta tolasi ishlab chiqilib, 1 ta vintli press bo‘lgan².

Paxtani tozalash dastgohlari to‘g‘risida shuni ta’kidlash mumkinki, qo‘lda yoki ot kuchida harakatga keltiriladigan kichik jinlar 12 tadan 25 tagacha arraga ega bo‘lib, unchalik unumdor bo‘lmagan. Suv yoki bug‘ dvigatelli jinlar esa 40 tadan 80 tagacha arraga ega bo‘lgan. Paxta tozalash zavodlarida amerikada ishlab chiqarilgan jinlardan foydalanilgan. 60 arrali dastgohda bir kunda 250-300 pud, 80 arrali jinda esa kuniga 400-450 pud paxta tola ishlab chiqarilgan. Turkistonda Pratt, Karver, Tomson, Orel va Broun kabi beshta amerika zavodlarida ishlab chiqarilgan jinlardan keng foydalanilgan. Dastlab Pratt zavodida ishlab chiqarilgan jinlar keng tarqalgan bo‘lsa, keyinchalik esa Karver va Broun rusumli dastgohlar katta o‘rin egalladi.

Paxta tolasini presslash masalasida shuni aytish lozimki, Turkistondagi ko‘pchilik paxta tozalash zavodlarida dastlab Grachev rusumli vintli pressdan foydalanilgan. Keyinchalik esa bug‘ dvigatelli gidravlik presslardan foydalanish keng yo‘lga qo‘yildi.

Markaziy davlat arxivida saqlanayotgan Turkiston Xazina Palatasiga taalluqli 87-jamg‘armada soliq inspektorlari tomonidan paxta tozalash va presslash zavodlaridan 2 foizli er solig‘ini undirish masalasida tuzilgan dalolatnomalardan mazkur zavodlarni bino va imoratlarini qurilishi, ulardagi ishlab chiqarish asbob-uskunalarini to‘g‘risida ma’lumotlar olish mumkin.

Masalan, Andijon uездini Baliqchi volosti Tovuldi qishlog‘ida joylashgan Darmonqul Karimqulovga tegishli suv kuchida ishlaydigan paxtani tozalash va presslash zavodini baholash bo‘yicha 1900 yil 25-oktyabrda tuzilgan dalolatnoma, Farg‘ona oblast boshqarmasi mahkamasining umumiy jurnalida qayd etilib, unga ko‘ra zavodning ikki qavatli binosi, paxta hom ashyosini saqlaydigan ettita ombori,

² Ўша асар, - Б. 244

har biri 60 arrali 6 ta jin, ya'ni paxta tozalash dastgohlari, shuningdek, paxtani toylash uchun Grachev va Blokk rusumidagi 2 ta qo'lda ishlatiladigan vintli presslari bo'lgan¹.

Andijon volostini Mayli-Izboskan volostini Qo'g'ay qishlog'ida joylashgan Raxmat Badalboevga tegishli bug' kuchi bilan ishlaydigan paxta tozalash va presslash zavodini baholash yuzasidan 1900 yil 27-oktyabrda dalolatnoma tuzilib, unga ko'ra zavodning ikki qavatli binosi, 4 ta paxta saqlash omborxonasi, SLOBRG firmasida ishlab chiqarilgan lokomobil, 4 dona har biri 60 arrali Prett rusumli jinlar, 1 dona Grachev rusumli qo'lda harakatga keltiriladigan vintli pressi bo'lib, zavod 1899 yilning ikkinchi yarmidan faoliyat yurita boshlagan.

SHuningdek, Farg'ona oblast boshqarmasi xo'jalik bo'linmasining 1901 yil 14-aprelda YAngi Marg'ilon shahridan chiqish hujjatlari kitobida № 9407 raqami bilan qayd etilib, Turkiston Xazina Palatasiga yuborilgan va 1901 yil 17-aprelda Palataning kirish hujjatlari kitobida № 576 raqami bilan qayd etilgan rasmiy xatda, Qo'qon shahri va Qo'qon uezdining Qaynar volostidagi paxta tozalash zavodlarini baholash va qayta baholash bo'yicha Qo'qon uezdining soliq inspektori tomonidan taqdim etilgan sakkizta dalolatnoma, Farg'ona viloyat boshqarmasi mahkamasining jurnalida 10-aprelda № 20 raqami bilan tasdiqlangan hujjatlarni, ko'rsatib o'tilgan jurnaldan olingan ko'chirma bilan to'lov varaqalarini tuzish uchun Xazina Palatasiga jo'natib yuborgan.

Farg'ona viloyat boshqarmasi mahkamasining umumiy jurnalidagi 1901 yil 10 apreldagi 20-sonli bayonnoma harbiy gubernator General-leytenant CHaykovskiy tomonidan tasdiqlanib, undan olingan ko'chirmadagi ajrimda, Mirrobi Mirmahmudovning Qo'qon shahri Beshariq mavzesida joylashgan bug' kuchida ishlaydigan paxta tozalash zavodi; Abduraxmon Nazarmuhamedovning Qo'qon shahrini Qatag'on mavzesida joylashgan suv kuchida ishlaydigan paxta tozalash zavod; SHonosir SHOabdullaevning vorislari va K ning, Qo'qon shahrini

¹ Мирзаев А. Мустамлака даврида фарғонадаги сиёсий жараёнлар. /“Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда” икинчи Республика илмий анжумани материаллари. Фарғона – 2013 й. – Б. 244

To'xli Mergan mavzesida joylashgan suv kuchida ishlaydigan paxta tozalash zavodi; Baron Andrey Lvovich Knopning, Qo'qon shahrini SHayxon mavzesida joylashgan bug' kuchida ishlaydigan paxta tozalash zavodi; Aka-uka Kamenskiylar savdo uyining Qo'qon shahrining Xaydarbek mavzesida joylashgan suv kuchida ishlaydigan paxta tozalash zavodi; Moskva savdo-sanoat SHirkatining (Qo'qon uездini) Qaynar volostini Naymancha qishlog'ida joylashgan bug' kuchida ishlaydigan paxta tozalash zavodi; YAroslavl Katta manufakturasini shirkatini (Qo'qon uездini) Qaynar volostini Ashirqul mergan qishlog'ida joylashgan suv kuchida ishlaydigan paxta tozalash zavodi; Mirrobi Mirmahmudovni (Qo'qon uездini) Qaynar volostini Oxun-Qaynar qishlog'ida joylashgan suv kuchida ishlaydigan paxta tozalash zavodi to'g'risida ma'lumotlar mavjudligini ta'kidlash mumkin¹.

Farg'ona viloyati boshqarmasi tomonidan Skobelev shahridan 1908 yil 5 aprelda 6916 raqami bilan Toshkentga, Xazina Palatasiga yuborilgan va u joyda 1908 yil 9 aprelda 996 raqami bilan qayd etilgan rasmiy xatda Andijon baholash komissiyasining, Andijon shahridagi YAlang'och-qo'rg'on mavzesida joylashgan "K.M.Solovev va K" Savdo uyiga tegishli bug' kuchida ishlaydigan paxta tozalash va yog'-moy zavodini baholash haqidagi dalolatnomani viloyat boshqarmasi mahkamasining jurnalida 1908 yil 4 aprelda 52 raqami bilan qayd etilgan.

Mazkur hujjatlardan zavod binosi yog'ni ishlab chiqarish va paxtani tozalash bo'limlaridan iborat bo'lib, korxona, shuningdek, 3 ta bug' qozonlari, bug' qozoni uchun injektor, ya'ni bug' qozoniga suv chiqarib turadigan asbob, 115 voltli va 100 amperli dinamo-mashina, ya'ni elektr toki ishlab chiqaradigan mashina, bir dona "Kamnaund" rusumli bug' mashinasi, ikkita silindri va 125 ot kuchiga teng muzlatgichi bilan, 10 ta linter, har biri 80 arrali 8 ta jin, bir dona paxtani toylash uchun gidravlik press(ya'ni suv kuchi bilan ishlaydigan press) ikkita qutisi bilan, 2 ta elevator, kunjarani ezish uchun 3 ta gidravlik press, 12000 pud yog'ni saqlash

¹ Мирзаев А. Мустамлака даврида фарғонадаги сиёсий жараёнлар. /“Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда” иккинчи Республика илмий анжумани материаллари. Фарғона – 2013 й. - Б. 245

uchun mo'ljallangan sisterna, tokarlik stanogi, jinlarni arralarini charxlash uchun stanoklarga ega bo'lganligini bilib olamiz.

O'lkadan imperiya markaziga tashib ketiladigan paxtani tozalash va presslash masalalari ham doimo chor hukumatining e'tiborida bo'lib keldi. Jumladan, 1912 yil 25 noyabrdan 1 dekabrgacha Toshkent shahrida paxtachilik va paxta sanoati masalalari yuzasidan paxta mutaxassislarining s'ezdi bo'lib o'tib, u erda ham paxtani tozalash texnikasini yaxshilash, tolani presslashni kuchaytirish muammolari muhokama qilinganligini ta'kidlab o'tish lozim.

Ma'lumki, Turkiston, jumladan Farg'ona qishloq xo'jaligi barcha tarmoklari rivojlanishi sun'iy sug'orish ishlari bilan chambarchas bogliqdir. Ayniqsa, paxtaning serhosil bo'lishi, paxta maydonini kengaytirish. qo'riq erlar o'zlashtirish va bu erlarni yangi paxta maydoniga aylantirish ishlari yangi sug'orish bazalarini vujudga keltirishni talab qiladi. Rus injener, geolog-irrigatorlari Sir, Qora, Norin daryolari atroflarida yangi kanallar qurish soxasida katta kidiruv ishlarini olib bordilar. Masalan, 1888 yilning may oyida "Ulug'nog'or" kanali Jilin boshchiligidagi geolog irrigatorlar tomonidan to'liq o'rganishga kirishildi va uning sug'orish imkoniyatlari kengaytirildi. Kanal rekonstruksiya kilinishi natijasida xonlik davrida 70 desyatina erni sugorish mumkin bo'lgan bo'lsa, endi 200-220 desyatina erni sug'orish imkoniyatiga ega bo'ldi. Farg'ona vodiysidagi eski ariqlar kengaytirildi. Norin, Sir va Qoradaryo bo'ylariga nasoslar o'rnatildi, artezan suvlaridan foydalanish tavsiya etildi.

XIX asrning oxirlarida Farg'ona tarixida birinchi marta motorlar yordamida daryolardan suv chiqarish va shu asosda qo'riq erlarni o'zlashtirish sohasida muxim ishlar qilindi. Turkistonda bunday nasoslar 99 ta bo'lib, 78 tasi Farg'ona viloyatiga joylashtirilgan edi.

YUqoridagi faktlar shuni ko'rsatib turibdiki, xokimiyat yangi erlarni o'zlashtirish va paxta maydonlarini kamaytirishga xarakat kilgan. Lekin, irrigatsiya soxasidagi o'zgarishlar Farg'ona xalqlarining asrlar davomida suvga bo'lgan galabini qondira olmadi. Oz bo'lsa ham amalga oshirilgan chora-tadbirlar Farg'ona vodiysida paxtachilikni o'sishiga olib keldi.

Natijada, Fargʻona viloyati XIX asrning 90-yillari oxirlariga kelib, Rossiyaning asosiy paxta bazasiga aylandi. U Turkiston viloyatlari ichida Rossiyaga paxta, xom-ashyo etkazib berishda solmoqli oʻrinni egalladi. Xullas, Fargʻonaning yalpi paxta xom-ashyosi 10 yil ichida Sirdaryo va Kaspiy orti viloyatlariga nisbatan 52 marta, Samarqand viloyatiga nisbatan 21 marta oʻsgan. XIX asrning oxirlarida Rossiyaning toʻqimachilik sanoatiga oʻrtacha xar yili 19800000 pud paxta sarflangan boʻlsa, shundan 8800000 pud paxtani Turkiston oʻlkasi etkazib berardi. Fargʻona viloyati esa Turkiston paxtasining 75-80 foizini tashkil etgan. Paxtachilikning eng rivojlangan davri 1915 yilga toʻgʻri keladi. Bu vaqtda yaroqli barcha erlarda paxta ekilgan. SHu yili viloyatda 336525 desyatina erga paxta ekilgan. Boshqa ekinlarga solishtirganda paxtaning tutgan oʻrni yanada oydinlashadi: bugʻdoy 317762, sholi 14117, tariq 9626, makkajoʻxori 46961, mosh 1951, bogʻdorchidiq ekinlari 13391, arpa 40810, joʻxori 41084, suli 2410, beda 63053, kanop va kunjut 2790 desyatina erga ekilgan. Demak, paxta sugʻoriladigan umumer maydonining yarmiga yaqin qismini qoplagan.

Paxta maydonlarining donli ekinlar xisobiga oʻsib borishi paxtakor dexkonning donga boʻlgan muhtojligini oshirib yubordi. Tashqaridan Fargʻonaga keltirilgan don axoli ehtiyojlarini qondira olmadi. Natijada oziq-ovqat baxosi oshib bordi, 1890 yildan 1894 yilgacha bir pud gʻallaning narxi 2-5 marta. paxtaning narxi 1 sum 60 tiyindan 3 sum 50 tiyingacha oʻsgan boʻlsa, 1893-1896 yillarda Fargʻonada oziq-ovaqatiing narxi 200-250 foizga koʻtarildi. 1901 yilga kelib Fargʻonada bir pud bugdoyning narxi 16 soʻm, arpa 11 soʻm 20 tiyin, makkajoʻxori 13 soʻm 40 tiyinga etdi, xuddi shu vaktning oʻzida bir pud paxtaning narxi 7 soʻm 20 tiyinni tashkil etardi. SHu bois, 1901 yil 19 aprelda "Zakasliyskoe obozrenie" gazetasi "Andijonda dahshatli qaxatchilik shak- shubxasizdir" deb yozgan edi. "Bunday qimmatchilikda Paxtakor dehqon qorni toʻyib ovqat emaydi, etishmovchilik yomon oqibatlariga olib kelishi mumkin. Fargʻona harbiy gubernatori 1901 yilda Turkiston gensrel-gubernatoriga bergan hisobot dokladnomasida "Paxtachilikning rivojlanishi

oblastda donli ekin maydonlarini qisqartirib yubordi. axolining donga muhtojligi o'sib boryapti" deb yozgan edi.¹

Demak, paxtachilikning o'sishi dehqonlarning hayotini yaxshilamadi. Rus moliyaviy kapitali fermerlar va mahalliy burjuaziya orqali paxta sotib olish va sotish ishlari ustidan to'la nazorat o'rnatdi. Natijada paxtakor dehqon paxtani bozordagi narx qanday bo'lishidai qat'iy nazar, yuqoridagi mahalliy boylar taklif qilgan narxdan ortiqcha sota olmas edilar. Fermerlar va boshqa ekspluatator doiralari o'z navbatida dehqonlarga qarzni kelgusi hosil hisobiga katta foiz bilan berar edilar.

Dehqonlarga kelgusi paxta hosili ustidan kredit berish kapital jamgarish manbai, ekspluatatsiya vositasigina bo'lib qolmasdan, balki mahalliy boy-quloklarning yaxshi erlarni o'z qo'llarida konsentratsiya qilish quroliga ham aylandi.

S.Ponyatovskiy bu haqda shunday yozadi: "Kelgusida paxta hosili uchun dehqonga kredit berish shu xo'jalikni kelajakda xonavayron qilish demakdir".

Paxtachilik komiteti paxta sotib olishning bunday formasini o'z dokladnomasida quyidagicha gasvirlaydi: "Hosil bo'lmay kolgan takdirda qarzlar kelgusi yilga ko'chiriladi, kelgusi yilda qarzning foizi oshadi va oqibatda bechora dehqonning ahvoli erni sotish bilan tugallanadi". Umuman olganda, 1901 yilda Farg'onada 30 foizga yaqin paxtachilik xo'jaliklari garovga qo'yilgan. Natijada 1903 yilga kelib Farg'ona viloyatidagi paxtachilik xo'jaligining deyarli yarmi xonavayron bo'lgai.

Dehqonlarning xonavayron bo'lishi, ayniqsa, hosilsiz va ocharchilik (1878, 1880, 1892, 1893, va 1896) yillari tezlasha boradi. A.Middepdorf Farg'onadagi qashshoklikning ko'rib, "Bu erdagi ochlik, qashshoqlik, dehqonlarning ayanchli ahvoliga nazar tashlaganda Evropadagi ochlikni ochlik qatoriga qo'shmasa ham bo'lar ekan" degan hulosaga keladi.

Qishloqlarda yildan-yilga ersizlar soni ko'payib bordi. Ersiz dehqonlar shaharlarga ish axtarib borib mahalliy ishchilar safini to'ldirdilar. 1880-1900 yillar ichida fakat Marg'ilon uezdida chorikorlar 62.3 foiz, mardikorlar 25.9 foizni,

¹ Шарафиддинов А. Фарғона вилояти тарихидан лавҳалар. (XIX asr oxiri – XX asr boshlari) I – kitob. – T.; "Наврўз", 2013. – Б. 23.

Andijon uezdining qishloqlarida ersizlar 60 foizni tashkil etgan. Farg'onaning ba'zi rayonlarida ersizlik 40-45 foizga etgan.

SHunday qilib, paxtachilikni rivojlanishi asosida ekonomikada, kishloq xo'jalik texnikasida, sotsial munosabatlarda ba'zi o'zgarishlar yuz berdi. Tovar-pul munosabatlari xo'jalikning qamma sohalariga kirib bordi va kishloq xo'jaligida kapitalistik munosabatlar paydo bo'la boshladi. Bu esa, o'z navbatida, sinfiy kurashni keskinlashtirdi. Birok paxtachilik dehqonlarning ijtimoiy hayotiga va yashash tarziga ijobiy ta'sir ko'rsatmaganligi bois izchil va keng ravishda rivojlanmadi. Bunda chorizmning mustamlakachilik siyosati va milliy zulmi sabab bo'ldi. Qishlok xo'jaligida hamon feodal munosabatlar hukmronlik qilar edi. Paxta rus kapitalistlari va mahalliy boy quloqlarga katta boylik keltirgan bo'lsa, paxtakor dehqonning iqtisodiy ahvolini tobora og'irlashtirdi.

3.Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida Farg‘ona viloyatidagi ijtimoiy hayot

XVI asrlardan O‘rta Osiyo mintaqasida boshlangan ijtimoiy-siyosiy parokandalik turli etnoslarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy darajasiga ham jiddiy ta’sir etgan holda dinamik holatda XX asr boshlarigacha davom etib kelgan. Bu esa turli etnik guruhlarining dehqonchilik vohalarida to‘liq turg‘unlashuviga va ularning assimilyasiya, konsolidatsiya jarayonlariga jiddiy ta’sir o‘tkazgan. SHu bois, XIX asr oxirlarida ham ularning etnik, xo‘jalik-maishiy, moddiy-ma’naviy va ijtimoiy turmush tarzidagi uyg‘unlashuvi oxirigacha etmagan hamda turli etnik komponentlar etnomadaniy identikligi¹ni muayyan darajada saqlab qolganligi kuzatiladi.

Farg‘ona vodiysi aholisi etnik tarkibining shakllanishi va etnografik xususiyatlari masalalari tadqiqotchilar tomonidan birmuncha yaxshi o‘rganilgan. Biroq vodiylar aholisining identikligi xususiyatlari maxsus tadqiq etilmagan.

Tarixiy-etnologik adabiyotlar tahlili shundan dalolat beradiki, XIX asrning ikkinchi yarmiga qadar O‘rta Osiyoning turli hududlari aholisining identikligi turfa xil bo‘lgan. Bu haqda rossiyalik tadqiqotchi S.N.Abashin shunday yozadi: “Asosiy, kundalik zaruriy identiklik tabaqaviy (oq suyak, qora suyak), diniy (sunnii, shia, sufiylik tariqati vakillari), xo‘jalik-madaniy (o‘troq, ko‘chmanchi va yarimko‘chmanchi, tog‘lik), hududiy (buxorolik, samarqandlik, xo‘jandlik va b.), urug‘-qabilaviy va hokazolarga asoslangan²”. Lekin tadqiqotchining, “1860-1870 yillarda ruslarning kelguniga qadar O‘rta Osiyo aholisiga etnik o‘z-o‘zini anglash hissi ma’lum bo‘lmagan” – degan fikriga to‘liq qo‘shilib bo‘lmaydi. CHunki urug‘-qabilaviy yaqinlik bizni nazarimizda o‘sha davrga xos etnik identiklikning muhim belgisi edi.

¹ Идентиклик деганда – инсоннинг маълум ижтимоий гуруҳга, масалан, бирор халққа, сиёсий, диний, ирқ ва шу каби гуруҳларга мансублигини ҳис этиши билан боғлиқ хусусияти тушунилади.

² Абашин С.Н. Население Ферганской долины (к становлению этнографической номенклатуры в конце XIX – начале XX века) // Ферганская долина: этничность, этнические процессы, этнические конфликты. – М., 2004. – С. 39.

SHu o'rinda amerikalik olim Samuel Xantingtonning quyidagi fikrini keltirib o'tishni lozim topdik: "inson o'z ajdodlarini almashtirish holatida emas... (ya'ni, inson o'z xalqini, millatini o'zgartira olmaydi) biroq inson madaniyatini o'zgartiradi. Odamlar bir e'tiqoddan boshqasiga o'tadi, chet tillarini o'rganish orqali yangicha qadriyatlarni qabul qiladi, yangicha turmush tarziga moslashadi. YOsh avlod madaniyati qisman oldingi avlod madaniyatidan farq qiladi SHundan kelib chiqib aytmoqchimizki, kelib chiqish umumiyligini his etish kabi etnosga xos xususiyatlar o'sha davr kishilari uchun ham xos bo'lgan. Til va madaniyatda bo'ladigan o'zgarishlar esa tabiiy jarayondir. Etnik identiklikning yaqqol namoyon bo'lmisligi etnosni, yoki etnik xususiyatlarni mavjudligini inkor etishga sabab bo'la olmaydi.

Farg'ona vodiysi aholisi orasida diniy, xo'jalik-madaniy, urug'-qabilaviy, hududiy identiklik birmuncha kuchli bo'lgan. Vodiydagi turli aholi guruhlarini birlashtirib turuvchi nisbatan umumiy identiklik bu - "biz musulmonmiz" degan diniy qarash edi. Islom dinida barcha musulmonlar irqi, madaniyati, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar bir "millat" deb qarash mavjudligi tufayli aholi guruhlarining tilida, turmush tarzi va madaniyatida mavjud bo'lgan farqlar chegara bo'la olmas edi. CHunki musulmon bo'lish etniklikning muhim belgilari bo'lmish til o'xshashligi, turmush tarzi va madaniy yaqinlikdan ko'ra ustun turuvchi tushuncha hisoblangan va bu jihat etniklikni (ya'ni, etnik o'z-o'zini anglashni) juda sust darajada bo'lishiga sabab bo'lgan, deyish mumkin. Balki shu sabab, mahalliy tarixchilar aholini tili, turmush tarzi, umuman etnik o'ziga xosligiga qarab "biz" va "ular" deb ajratib o'tirmagan. Aksincha, e'tiqodiga qarab, "toza, sof musulmon" yoki "chala musulmon" tarzda yondashgan.

Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davriga qadar mahalliy aholining turmush tarzi va madaniyati diniy ideniklikka mos tarzda bo'lsa-da, lekin o'zida etnik, hududiy va lokal xususiyatlarni mujassamlashtirganligining guvohi bo'lamiz. Bu jihat murakkab etnik tarkibga ega hudud aholisining o'zaro ijtimoiy munosabatlarida erkinlikni ta'minlagan. Rus tadqiqotchisi N.Petrovskiy "Qo'qon xonligi ocherklari"da xonlik aholisi haqida quyidagilarni: "Din masalasida

Qo‘qonliklar Buxoroliklar kabi xudoga berilib ketmagan bo‘lsa-da, ularda ochiqko‘ngillik, diniy bag‘rikenglik bor. Ijtimoiy munosabatlarda esa ular Buxoroliklarga nisbatan haqgo‘y, ochiq, shaxsiy hayotda ancha yumshoq, oilam va uyim-joyim deydigan va umuman aytganda ochiqko‘ngil va samimiy odamlar.¹” deb yozadi.

Farg‘ona vodiysi o‘troq aholisi orasida o‘zlarini Muhammad payg‘ambar avlodi deb hisoblovchi sayyid va xo‘jalar alohida ijtimoiy guruh sifatida ajralib turadi. SHu bois ular o‘zlarini boshqa aholi ommasidan ajratgan holda “oq suyak” deb bilishgan. Eng asosiysi sayyid va xo‘jalar endogam nikohga qat‘iy amal qilishgan. O‘zgalarga nisbatan bunday yopiq muhit oqibatida ular madaniyatida ayrim o‘ziga xoslik shakllanganki, ba‘zan odamlar ularni alohida etnik jamoa sifatida biladi.

Mutaxassislar aholining joylashuvida va xo‘jalik shaklida ma’lum ma’noda etnik xususiyatlar namoyon bo‘ladi, deb hisoblaydilar. Bu fikrga qo‘shilish mumkin va bu etnosni shakllanishi tabiatdan ayri emasligini qaysidir ma’noda asoslaydi. U.Abdullaev Farg‘ona vodiysi aholisining an’anaviy xo‘jalik aloqalari turli xo‘jalik-madaniy tiplarga kiruvchi etnoslar o‘rtasida aniq farqlanib turadi, deb ta’kidlaydi².

Farg‘ona vodiysining asosan tog‘li hududlarida yashovchi qirg‘izlar ko‘chmanchi chorvachilik bilan shug‘ullanib kelishgan. XIX asr oxirlarida yarim ko‘chmanchi turmush kechirgan qipchoqlar esa yaylov chorvachiligi va qisman dehqonchilik bilan shug‘ullangan. Ko‘chmanchilik chorvador aholi uchun nafaqat xo‘jalik-madaniy faoliyat bilan bog‘liq zarurat, balki, ularning dunyoqarashi (yoki identikligi) bilan ham bog‘liqdirki, ular quyosh, oy, er, kecha va kunduz, ya’ni dunyodagi barcha narsa doimiy harakatda bo‘ladi. SHunday ekan “insonlar ham doimo bir joydan ikkinchi joyga ko‘chib yurishlari kerak” degan tushuncha bilan ham bog‘liq. SHu bois ular kambag‘allashib, chorva hayvonlarining soni kamayib, nochor ahvolda qolgan taqdirdagina o‘troqlashgan.

¹ Петровский Н. Очерки Кокандского ханства (Вестник Европы) // ТС. Том 76. – С. 729-730.

² Қаранг: Абдуллаев У.С. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар (XIX-XX аср бошлари). – Т. 2005.

XX asr boshlarida turklarning joylashuvida ham ma'lum qoida kuzatiladi— ular Farg'ona vodiysining janubiy-sharqiy qismidagi tog'oldi adir zonalarida joylashgan. SHu bois ba'zi adabiyotlarda ularni tog'li turklar deb ataladi. Ular yarimko'chmanchi turmush-tarziga ega bo'lgan va asosan chorvachilik bilan shug'ullanganlar, shuningdek adirlarda lalmi dehqonchilik ham qilib, bug'doy, jo'xori etishtirganlar. CHorvaning asosiy qismini "hisor" va mahalliy (jaydari) qo'ylar tashkil etgan. Bundan tashqari turklar yilqi va qoramol ham boqishgan.

Farg'ona vodiysida yashovchi qoraqalpoqlarning aksariyati Sirdaryo va Qoradaryo qirg'oqlaridagi hududlarda joylashganlar va Andijondan to Qo'qongacha bo'lgan hududlarda o'zlarining qator qishloqlarini barpo etganlar. V. Nalivkin "Qo'qon xonligining kishqacha tarixi" nomli asarida yozishicha, qorqalpoqlarning Sirdaryo bo'ylariga yaqin tekislik va to'qayzorlardagi qamish bosgan hududlarda joylashishi asosida ularning ko'p asrlik etnik an'ana va ko'nikmalari hamda o'ziga xos xo'jalik yuritish an'analari yotadi. CHunki, qoraqalpoqlar uchun dehqonchilik, baliqchilik va uy hunarmandchiligini yuritish azaldan muhim bo'lgan. Bular orasida, ayniqsa, uy hunarmandchiligi (qamishdan bo'yra, savat va boshqa shu kabilarni to'qish) ustun turgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida madaniy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy fikr taraqqiyotida matbuot, nashriyot muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Keyinchalik ham mahalliy aholining ijtimoiy-siyosiy rivojlanishida vaqtli matbuotning o'rni ayniqsa beqiyos bo'lib, ularning maqsadi targ'ibot-tashviqot bilan birga bolsheviklarning ateistik xatti-harakatlaridan musulmonlar e'tiqod va axloqini himoya qilish hisoblangan¹. Turkistonning boshqa hududlari kabi Farg'ona viloyatiga ham Bog'chasaroydan "Tarjimon", Qozondan "Vaqt" va "YUlduz", Astraxandan "Idil", Bokudan "Taraqqiy", "Ittifoq", "Kaspiy", Orenburgdan "SHo'ro" va "CHuquch" kabi gazeta va jurnallar kelib turardi. Bu esa musulmonlar

¹ Шарипов Р, Муҳиддинова Ф. Ўзбекистон халқлари сиёсий-ҳуқуқий таълимотлари тарихи. –Т.: Тошкент Давлат юридик институти, 2004. –Б.28

orasida yangiliklarni tez yoyilishi va aloqalarni yanada mustahkamlanishiga zamin yaratgan¹.

O'lkaga safarbar qilinganlardan tashqari Sibir, Volgabo'yi va Uraloldi va shuningdek, Rossiyaning turli hududlaridan ro'yxatdan o'tmagan holda boshqa millatlar qatori ko'plab tatar va boshqirdlarning tinimsiz kelishi imperiyani jiddiy tashvishga sola boshlagan. Chunki, ularning tashrifi mahalliy aholining ma'naviy-ma'rifiy sohada uyg'onishiga turtki bo'lishi mumkin edi. Shu bois, boshqa hududlar kabi Farg'ona viloyatiga ham o'zga millat vakillarining kelib-ketishi ustidan qattiq nazorat o'rnatilib, kelgindilarning tashriflari qachon, qaerga, nima sababdan ekanligi uzluksiz nazorat ostiga olingan va bu haqdagi ma'lumotlar zudlik bilan imperiyaga etkazilgan.

Turkistondagi siyosiy jarayonlarni kuzatish va tartibga solish uchun "Turkiston rayon muhofaza bo'limi" TRMB faoliyatiga alohida e'tibor qaratildi. Maxsus josuslik xizmatini bajaruvchilar o'z ma'lumotlarini asosan, qo'lyozma tarzida tezkor yozish va jo'natishidan shuni aniqlash mumkinki, mustamlaka hududlarni har tomonlama tashqi aloqadan uzish va turli munosabatlarga kirishtirmaslik eng zarur vazifa hisoblangan. Ayniqsa, tatar va boshqirdlar faoliyati hamda tashrifi bilan bog'liq xabarlar diqqatga sazovor.

Turkiston siyosiy hayotida asosiy markazlardan biriga aylangan Farg'ona hududining jadidlari borgan sari imperiya diqqatini o'ziga jalb etgan. Darhaqiqat siyosiy harakatlar, partiyalar tuzish va uning dasturlarini shakllantirish ishlarida ham buni ko'proq kuzatiladi. Masalan, tahlil uchun 1917 yil 11 sentyabrda qabul qilingan "Turk adami markaziyati" faoliyatiga alohida e'tibor qaratish mumkin. Partiya dasturini tuzishda ishtirok etganlarning aksariyati turli kasb egalari bo'lishsa-da, ular kelishuv asosida yakdillik bilan harakat qilishgan. O'z o'rnida ular Turkiston ijtimoiy hayotida salmoqli o'ringa ega shaxslar hisoblangan.

Milliy jadidlar qatori ilg'or tatar va boshqirdlarning davlat to'g'risidagi qarashlarining amalga oshmay qolishiga bolsheviklarning hokimiyatni egallashlari

¹ Абдурахимова Н, Эргашев Ф. Туркистонда чор мустамлака тизими –Т.: Академия, 2002.-Б.156

to'siq bo'ldi. Biroq shunday bo'lsada, keyinchalik siyosiy, harbiy va iqtisodiy jarayonlarda tatar seksiyalarining faoliyatlari ancha jonli kechdi.

Bundan tashqari tatar va boshqirdlarga tegishli ko'chmas va boshqa turdagi qimmatbaho mulklarning oldi-sotdi masalalari ham maxsus ruxsat va iltimosnoma orqali amalga oshirilgan. Bundan ko'zlangan maqsad, ularning keng miqyosdagi turli ko'rinishdagi mulklarga ega bo'lmasliklarni oldini olish edi. Farg'ona viloyati boshqarmasining 1905 yil 6171-sonli xatida YAngi Marg'ilon shahrida istiqomat qiluvchi boshqird YAhyo Muhammad Zarif Rezvanov, Xisamiddin Xusayn Burnashev, Muhamed Safa Engulashev tegishli ko'chmas mulkni sotish uchun berilgan muddatni cho'zdirish haqidagi iltimosnomalari yuborilgan. Namangan uyezdi boshlig'i ularga bir oy muddatda majburiy ravishda mulklarini sotib yuborish aks holda o'lka sudidan majburiy da'vo berishi ogohlantirilgan.

1905 yilning 12 avgustidagi 8284-sonli xatda yuqoridagi fuqarolarning ko'chmas mulklarini va Farg'ona viloyatining Peshqo'rg'on qishlog'ida istiqomat qiluvchi Buyuk britaniyalik Bay Mandul Aramovlarning shu haqdagi iltimoslari qondirilgan. Ularning talablari sinchiklab o'rganilib, 1902 yilning 10 sentyabridagi 24-sonli yalpi yig'ilishda qabul qilingan "O'lkani boshqarish haqidagi Nizom"ning 262- moddasiga binoan amalga oshirilgan.

Turkistonning ko'plab hududlari kabi Farg'ona shaharlarida ham tatar muallimlari tomonidan ochilgan usuli jadid maktablarning dastlab rivojlanmasligining sabablardan biri imperiyaning kuchli aralashuvi edi. Maxsus xizmat xodimlari tomonidan ayniqsa, xususiy maktab ochishga intilayotgan tatarlar faoliyati ham zimdan kuzatilgan.

Musulmon harakati bo'yicha maxfiy josus "Qo'qonlik" sartlar Qo'qonda yangi ochilayotgan maktabga Mazitov Salohiddin domlani ishga taklif qilishayotganini, domla ruslarga fanatik darajada qarshiligi haqida ma'lumotlar beradi. Mahalliy aholining o'qimishli tatarlarga nisbatan ishonchi va hurmati josuslar ishini yanada murakkablashtirgan.

Qo'qon uyezdi boshlig'ining 1910 yil 25 sentyabridagi 115-sonli xabariga ko'ra, Salohiddin Mazitov 10 yil yangi usul maktabini yuritib mahalliy aholi

bolalariga dars o'tgan va 1911 yilning 1 yanvaridan boshlab xalq o'quv yurtlari inspektorining farmoyishi bilan u tatar millatiga mansub bo'lganligi uchun dars berish huquqi bekor qilingach, savdo-sotiq bilan shug'ullanadi. Keyinchalik, Namanganda Yo'ldoshboy YUsupov ismli boyning qo'lida ishlab ikki yildan so'ng Qo'qonga ko'chib ketadi va u erda maxsus ruxsat bilan faqat tatar bolalarigagina dars beradi. Mahalliy aholi farzandlariga dars berishi esa qat'iy taqiqlanadi.

Turkiston general-gubernatori devonxonasi boshqaruvchisining hisobotlariga ko'ra, boshqa hududlarga qaraganda Farg'ona viloyatida hukumatga qarshi "Musulmon tashkilotlari" faoliyati ancha jonli bo'lgan. Ular Turkiston o'lkasidan tashqarida faoliyat olib borayotgan tatarlar bilan ham tez-tez aloqa o'rnatishgan va siyosiy faoliyatda teatrdan kuchli foydalanishgan. Masalan, maxfiy xodim "Nozim" ma'lumotiga ko'ra 1913 yil 7 iyun kuni Qo'qondan taniqli panislomchi Qoriev boshchiligida tatar truppasi kelgan va teatrdan so'ng muzokaralar bo'lib o'tgan.

Bundan tashqari mulkdor tatar va boshqirdlar Turkistonning turli hududlari kabi Farg'onaning ham turli manzillarida maishiy xizmat uylarini ochib, shifokor, do'kondor, mulla niqoblari ostida faoliyat olib borishgan. Masalan, 1912 yildan buyon Andijonda Xoji Sog'itning kichik do'konchasi borligi, u mahalliy aholini Turkiyaning qaramog'i ostida ruslarga qarshi targ'ib qilayotgani josuslar tomonidan uzoq vaqt tekshiriladi.

Qo'qon uezd boshlig'ining Turkiston general-gubernatoriga yo'llagan 1909 yil 5 fevralda mutloq maxfiy belgisi ostidagi ma'lumotiga ko'ra, tatarlar tomonidan mahalliy aholining amaldor shaxslaridan musulmon tashkiloti "Musulmonlar ittifoqi" uchun pul mablag'lari jamg'arilgan. Mazkur tadbirga tatar Abdul Samid Homidiy bosh-qosh bo'lgan. SHu bois, Qo'qon uezdi boshqaruvchisi tomonidan tatar SHoxozod Qodirov va Abdul Samid Homidiylarning uylarida tintuv ishlari olib borilgan va bu ikki shaxs hibsga olingan. SHaxozod Qodirov o'z paytida Andijon va Qo'qonda o'qituvchi bo'lib ishlash bilan birga jadidlar rahnomosi Ismoilbek Gasprinskiy bilan yaqin aloqada bo'lgan.

Tatar va boshqirdlarning Farg‘ona viloyatidagi iqtisodiy-siyosiy hamda madaniy-ma’rifiy harakatlari sermahsul bo‘lganligi bois keng qamrovli faoliyatlari uzluksiz kuzatib borildi. Ijtimoiy-siyosiy hayotda katta ta’sir kuchiga ega bo‘lgan tatar va boshqirdlar Turkiya, Afg‘oniston, Angliya kabi turli davlatlar bilan olib borgan yashirin faoliyatlari uchun ko‘plab yurt taraqqiyparvarlari qatori keyinchalik panturkist, panislomist niqobi ostida yo‘qotib yuborildi¹. Biroq kuchli tazyiqlar bo‘lishiga qaramay, Turkistonning eng qaynoq nuqtasi hisoblangan Farg‘onadagi milliy harakatlar rivojida tatar va boshqirdlarning o‘rni va roli beqiyos bo‘lgan.

CHor Rossiyasi tajovuzining asosiy sabablaridan biri o‘zining to‘qimachilik sanoatini paxta xom ashyosi bilan ta’minlashdan iborat edi. CHor xukumati tobora o‘sib borayotgan sanoatning paxtaga bo‘lgan ehtiyojini qondirish maqsadida Turkistonda paxtachilikni rivojlantirishga qaratilgan choralarni amalga oshirib bordi. Bu sohada, ayniqsa, Fargona vodiysida muhim ishlar kilindi. Uzbek paxtasini rus to‘qimachilik sanoatining talablariga moslashtirishni va daromadni oshirishni ko‘zdab, Amerika paxta navini o‘lkada iqlimlashtirishga harakat qilganlar.²

Farg‘ona vodiysida, 1879 yilda birinchi marta yangi navlar Namangan uездining CHust qishlog‘ida ekib ko‘rildi. Birok birinchi tajriba ijobiy natija bermadi. CHunki ekilgan paxta navlari (seya island) serhosil bo‘lsa-da, kechlishar edi.

1980 yilga kelib, CHust uездida ko‘rgazmali tajriba uchastkasi tashkil etilib, paxtaning 20 dan ortiq amerika navlari (king, upland, triumf, russels, florida) sinab ko‘rildi. Bulardan upland va king navlari Fargonaning obi havosiga mosligi, mahalliy paxta navlariga nisbatan serhosil ekanligi aniqlandi. Tajriba uchastkasida ekilgan mahalliy paxta navlari o‘rtacha har desyatinadan 35-40 pud, amerika navlaridan esa 70-75 pud hosil olindi. YAngi paxta navlarini maxalliy paxta navlariga nisbatan afzalligi aholi o‘rtasida targibot qilina boshlandi. Lekin dehqonlar bu yangilikka dastlab shubha bilan karadilar.

¹ Қосимов Б. Миллий уйғониш. –Т.: Маънавият, 2002.–Б.75

² Шарафиддинов А. Фарғона вилояти тарихидан лавҳалар. (XIX аср охири – XX аср бошлари) I – китоб. – Т.; “Наврўз”, 2013. – Б. 17.

Dehkonlarni qoniktirmagan asosiy sabablardan biri, Amerika paxtasini qo‘l chigirig‘i bilan tozalashda chigitning toza ajralmasligi edi. Rus mu‘muriyati, sanoat egalari, firmalar paxtani chigiti bilan sotib olishga va‘da berdilar.

Farg‘ona vodiysining aholisi sharqiy mamlakatlar bilan savdo aloqasini davom ettirish bilan birga, XVII asrdan boshlab Rossiya bilan savdo aloqalari o‘rnata boshladi. Paxta, ipak, meva va boshqa qishloq xo‘jalik mahsulotlari, shuningdek, xunarmandchilik buyumlari Rossiyaga tashildi. Rossiyadan esa Farg‘ona vodiysiga sanoat mollari yuborildi.

1875 yilda Farg‘ona vodiysiga chor qo‘shinlari kirib keldi, keyingi yili esa Qo‘qon xonligi tugatildi, 1875 yilning sentyabrida Marg‘ilon, 1876 yilning fevralida Qo‘qon xonligi rasmiy ravishda Rossiya imperiyasi tarkibiga qo‘shib olindi. Unga Qo‘qon, Marg‘ilon, Andijon, Namangan va boshqa uezdlar kirdi.

Butun O‘rta Osiyo singari Farg‘ona vodiysi Rossiya bilan iqtisodiy aloqalarga tortildi.

Rossiyaning O‘rta Osiyodagi iqtisodiy siyosatining asosiy yo‘nalishi ushbu mintaqani imperiyaning hom ashyo manbaiga va rus sanoati mahsulotlarining bozoriga aylantirishdan iborat bo‘ldi. Ushbu maqsadda rus general-gubernatorlari O‘rta Osiyoga rus savdo-sanoat va moliyaviy sarmoyalarning kirib kelishi uchun qulay sharoitlar yaratishga alohida e‘tibor qaratishdi.

Farg‘ona viloyati O‘rta Osiyoning asosiy paxtachilik hududiga, paxta mahsulotlari etishtiradigan hududiga aylandi.

XIX asrning 70-80 yillarida O‘rta Osiyoda, shu jumladan Farg‘ona vodiysida, N.N.Konshin, T.S.Morozov, N.P.Kudrin, A.G.Kuznetsov va boshqa rus savdogarlari va tadbirkorlari savdo operatsiyalarini amalga oshirardilar. Rus moliyalari bilan birgalikda chet el sarmoyalari ham mintaqaga asta-sekin kirib keldi.

Paxtani harid qilish va dastlabki ishlov berish bo‘yicha faoliyatni YArosavl Katta Manfakturasi shirkati olib bordi. SHirkat O‘rta Osiyoda, shu jumladan Andijon uezdida, paxta dalalariga ega edi. Bundan tashqari, 16 ta paxta tozalash zavodiga egalik qilardi. SHirkatning zavodlari va idoralari Qo‘qon, Andijon, YAngi

Marg‘ilon, Namangan va boshqa shaharlarda mavjud bo‘lgandi. 1915 yilda shirkat “Besh-Bosh” birlashmasiga kirdi.

1880 yildan boshlab “I.K.Poznanskiy” (Lodz shahri) hissadorlik jamiyati O‘rta Osiyodan ko‘plab paxta xarid qildi. 1890-1897 yillarda har yilgi o‘rtacha haridi 1120000 pudni tashkil qilgan bo‘lsa, shulardan 620 ming pud Farg‘ona viloyatiga to‘g‘ri kelardi.

“Aka-uka SHlosberglar” savdo uyi ham 1888 yildan boshlab ko‘plab miqdorda paxta xarid qildi va Andijon, Qo‘qon, Namangan, Asakada o‘z idoralariga ega edi. Paxtani tozalash va presslash ishlarini 12 ta ijaraga olgan zavodlarda amalga oshirdi.

1841 yildan Moskvada istiqomat qilgan nemis baroni L.G.Knop asos solgan “L.Knop” savdo uyi XIX asrning 90-yillardan boshlab O‘rta Osiyoda paxta bilan bog‘liq operatsiyalarini amalga oshirdi. Savdo uyi Namangan va Andijonda o‘z bo‘limlarini ochdi, Qo‘qon uezdida 355000 pud ishlab chiqaradigan ikkita paxta tozalash zavodini xarid qildi.

1912 yilda “L.Knop” savdo uyi Potelyaxov savdo-sanoat shirkatiga ta’sischiлик qildi. SHirkat Qo‘qonda, Andijonda, Farg‘onada, Namanganda, Eski Marg‘ilonda 7 paxta tozalash, yog‘ va sovun zavodlariga egalik qildi.

O‘rta Osiyoda paxta savdosi bilan “Vladimir Alekseev” nomli sanoat va savdo shirkati shug‘ullanardi. SHirkat 1895 yildan paxta tozalash zavodlarini qurishni, er uchastkalarini sotib olishni, mahsulot omborlarini xarid qilishni boshladi. 1905 yilga kelib shirkat qo‘lida Andijon, YAngi Marg‘ilon (Farg‘ona) va CHustda paxta tozalash zavodlari, Andijon va Qo‘qonda idoralari bor edi. 1905-1910 yillarning o‘zida shirkat Farg‘ona viloyatida 250-350 ming pud paxta sotib oldi.

O‘lkada paxta savdosi va paxta tozalash sanoatida banklar muhim o‘rin egalladi. Ular orasida Peterburg banklari, ayniqsa – Rus-Osiyo banki etakchilik qildi. 1910 yilda bank paxta hom ashyosi evaziga sudalar berdi. Qo‘qonda – 1,5 mln. rubllik, Andijonda – 1,5 mln, rubllik, Namanganda – 1 mln. rubllik va boshqa.

O'rta Osiyodagi yog' ishlab chiqarish sanoati asosan Farg'ona viloyatida rivoj topdi.

Paxta yog' sanoatiga kirib kelishga amerika sarmoyasi ham urinib ko'rdi. 1900 yilda chor hukumati Uilyam M.Fitsxyuga Andijonda yog' zavodini qurish uchun er uchastkasini xarid qilishga ruxsat berdi. Zavodda har yili 1,5 mln. pud paxta urug'ligini qayta ishlash, 1 mln. rubllik sarmoyani o'zlashtirish va 100 ishchi joylarini tashkil etish ko'zda tutilgandi. Lekin keyinchalik Fitsxyuning o'zi zavod qurilishini rentabelsiz deb topdi.

1901 yilda Nemis hissadorlik jamiyati (Kyoln sh.) yog' sanoatiga kirib kelmoqchi bo'ldi. Ammo, Turkiston general-gubernatori bunga ruxsat bermadi. 1900, 1902 va 1907 yillarda K.M.Solovevning CHust, Namangan va Andijonda 7 press bilan jihozlangan yog' zavodlari qurildi. 1902 yilda Namanganda "Zigel va Reynogagen" savdo uyining 2 pressli yog' zavodi ochildi. 1904 yilda ushbu firma Fedchenko stansiyasida 4 pressli yog' zavodi qurdi, Namangan zavodida esa yana 1 pressni qo'shdi.

1910 yilga kelib Farg'ona viloyatining o'zida 13 ta yog' zavodi mavjud edi. Ularda 39 dona gidravlik pressi o'rnatilgandi. Umumiy ishlab chiqarish hajmi 1350000 pud tozalangan yog'ni, 3 mln.pud kunjarani, 4,5 mln. pud po'stni va 135 ming pud lint paxtasini tashkil qildi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, XIX-XX asr boshlarida Farg'ona vodiysi aholisining ijtimoiy holati etnik chegaradan ancha keng bo'lib, aholi guruhlarini o'zaro ijtimoiy munosabatlarida erkinlikni ta'minlagan. Aholining etniklik xususiyatlari ularning turmush tarzi, moddiy va ma'naviy madaniyati, ko'nikmalarida o'z ifodasini topgan edi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida viloyat shaharlari bosqinchilarning harbiy istehkomlariga aylantirildi. Yangi shaharlar va eski shaharlarning yangi qismlari aynan mustamlaka ma'muriyati, harbiylari, rus aholini himoyasiga moslab barpo etildi. Farg'ona viloyati shaharlari uezd markazlari sifatida viloyat boshqaruvi

hamda o'lkada boshqaruvi tizimida alohida o'ringa ega bo'lganlar. SHaharlar hokimlar, uezd boshliqlari, ularning mahkamasi, yordamchilari, kotib va tarjimonlari, politsiya, sud, moliyaviy xodimlari orqali boshqarilgan. Viloyatda umumimperiya qonun va tartiblar joriy qilingan bo'lib, hukumatning barcha bo'g'inlari pastdan yuqoriga qarab hisobot bergan. Erli aholi esa oqsoqollar instituti orqali boshqarilgan. Biroq mahalliy organlar ham mustamlaka ma'muriyatiga tobe bo'lgan.

SHaharlarda aholi zich joylashganligi, ularda ta'lim tizimi, masjidlar va savdo shohobchalaridan iborat an'anaviy ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmalar mavjud bo'lganligi, mazkur shaharlar savdo va hunarmandchilik, madaniyat markazlari sifatida muhim ahamiyat kasb etganligidan dalolat beradi. Bu davrda Farg'ona vodiysi an'anaviy hunarmandchilik o'ziga xos rivojlanish va taraqqiyot bosqichiga ega bo'lib, umumo'zbek milliy hunarmandchiligining tarixida alohida o'rin tutadi.

SHuningdek viloyatning ma'muriy xududiy tuzulishi ham qaytadan ko'rib chiqilgan va uning boshqaruv sistemasi to'laligicha mustamlakalashtirilgan. CHunoncha barcha yuqori boshqaruv organlariga evropaliklardan qo'yilgan, barcha jabha to'laligicha harbiylashtirilgan.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida Farg'ona viloyatining Namangan va Andijon uездlarida paxtachilik sanoatining rivojlanishi birinchi navbatda o'lkada mahalliy dehqonlar hayotiga o'z salbiy ta'siri o'tkazdi. Jumladan, chorikor, mardikor va boshqa bir parcha erga ega bo'lgan dehqonlarning turmush tarzini ko'rgan bir zamondosh buni xiunday tasvirlaydi: «Dehqonning uyi va xo'jaligi shu darajada achinarliki, unga o'xshaganni boshqa biror joyda ko'rmaganman. O'ydagi bor narsa erda yoki devor taglarida onda-sonda turgan 2—3 ta temir va 2—3 ta sopol idishlardan iborat, xolos. Uni burchagida xu-nuk, yirtiq va yag'iri chiqqan bir nechta yostiq va ko'rpachalar pala-partish to'planib yotibdi. Dehqonlar qoramtir ko'kragini qish-yoz ochiq qoldiradigan yag'ir yaxtak va ustiga yirtiq to'n kiyadilar. Xotinlar va bolalar ham yirtiq kiyimlarda yurishadi. Ular og'ir mehnatdan keyin kuch to'plash uchun ozgina qovurilib, suv bilan pishirilgan atala yoki jo'xori, bug'doy yoki arpani

qatiqqa aralashtirilgan boʻtqasini eyishadi. Ularda hamma vaqt shu ovqat va doimo oʻsha mashaqqatli mehnat».¹

Mazkur satrlarda paxtakor va boshqa dehqonlarning oʻta ogʻir hayoti va qashshoqligi shu darajada aniq va yorqin bayon etilganki, mustamlakachilik muhitida paxtachilikning rivojlanishi tubjoy aholini qanday ayanchli va fojiali oqibatlariga olib kelganligi yaqqol koʻrinib turibdi.

Paxtachilikni jadallik bilan rivojlantirishning xunuk oqibaglarga olib kelishini XIX asrning oxirlaridayoq jamiyatning ilgʻor vakillari, xususan, ayrim din peshvolari yaxshi anglab, bu ketishda «oq paxtadan oʻzbek xalqi boshiga qora kunlar tushishini» bashorat qilganlar. Darhaqiqat, yuqorida koʻrsatilganidek, xuddi shunday kunlarga muhtalo boʻlindi. Chunki paxtadan olinadigan daromadlarning asosiy qismi savdo-sanoat korchalonlarining choʻntagi tushaverdi. «Paxtachilik kishilarga katta hajmdagi mablagʻlarni olib kelgan boʻlsa-da, — deyiladi manbada, — lekin ular firmalar, sudxoʻrlar va shunga oʻxshash boshqa ki- shilar oʻrtasida taqsimlandi. Oʻrtahol dehqonlar paxtadan boyimadilar, kambagʻal paxtakorlar esa xona- vayron boʻldilar».

Xullas, chor hukumati Turkiston zaminining tur- li-tuman boyliklarini egallabgina qolmay, balki uni oʻlkani paxta xom ashyo manbaiga aylantirishni ham koʻzlab, harbiy yurishlar uyushtirgan edi. SHu tufayli ham oʻlkada oʻz hukmronligini oʻrnatish bilanoq, eng avvalo paxtachilikni rivojlantirishga katta ahamiyat berdi. Bu jarayondan Fargʻona viloyatining Andijon va Namangan uездlari ham chetda qolmadiyu CHor hukumati Fargʻona vodiysida paxta maydonlarini kengaytiribgina qolmay Amerika paxta navlarini iqlimlashtirishga kirishdi va bunga muvaffaq boʻldi. YAngi paxta navlari etishtirish oʻzbek paxtachiligi hayotida yangi voqea hisoblandi. Chunki asrlar osha etishtirilib kelayotgan mahalliy paxta sifati koʻproq hunarmandchilik sanoati talablariga moslashgan edi. Uning tolalari ancha kalta va dagʻal hisoblangan. SHuningdek,

¹ Тарих —шоҳидлиги ва сабоқлари: чоризм ва совет мустамлакачилиги даврида Ўзбекистон миллий бойликларининг ўзлаштирилиши - Т.: Шарқ, 2001. — Б. 178.

paxta chanog'ida ochilmaganligi uchun tanasidan uzilib, so'ngra paxtasi qo'l bilan ajratib olingan. Bu mashaqqatli mehnatni talab qilib, paxta tannarxining oshishga olib kelgan. Amerika paxtasi esa chanog'ida ochilib, katta qulayliklarni tug'dirgan, tolasining uzunligi va sifati yaxshiligi bilan ajralib turgan. Ayni paytda, uning hosili ancha baland bo'lgan.

SHu tariqa, XIX asrning 80—90-yillarida Farg'ona viloyatining Namangan va Andijon uездlari ham o'lkada bo'lgani singari metropoliya, to'qimachilik sanoati talablariga javob beradigan yangi paxta navlari iqlimlashtirildi.

Ikkinchidan, paxtachilik yangi sun'iy sugorish tarmoqlarini keng ko'lamda yo'lga qo'yish, yangi erlarni o'zlashtirish hisobiga emas, balki ilgaridan foydalanib kelayotgan ekin maydonlari doirasida rivoj- lantirildi. Bu oziq-ovqat mahsulotlari etishtirish- ning kamayishi va narx navoning oshishiga olib keldi. Ayniqsa, g'allachilikka katta zarba berdi.

Farg'ona vodiysida salmoqli o'rin egalladi. Bu erda etishtirilgan paxta butun Turkiston o'lkasida olinadigan paxtaning 60 foizidan ortig'ini tashkil qilgan. XIX asrning oxiri — XX asrning boshlarida o'lka Rossiyaning xom ashyo manbai va tayyor mahsulotlar bozoriga aylantirildi. CHunonchi, 1890 yili o'zbek paxtasi rus to'qimachilik sano- atida ishlatiladigan paxtaning 8 foizini tashkil etgan bo'lsa, 1916 yilga kelib bu ko'rsatkich 72 foizga ko'tarildi.

Uchinchidan, paxtachilikning rivojlantirilishi mustamlakachilik nuqtai nazaridan amalga oshirildi. Undan olinadigan katta daromadlar chor hukumati, savdo-sanoat doiralari tomonidan o'zlashtirildi. Ular kam xarajat qilib, ko'p foyda olish yo'lidan borib, sun'iy sug'orish va yangi erlarni o'zlashtirish uchun arzimagan mablag ajratdi. Qishloq xo'jalik texnikasini takomillashtirishga ahamiyat berilmadi. Paxta- korlarning mehnatiga yarasha haq bermay, qarzdorlik kishanlari bilan boglab qo'yildi. Natijada o'zlarining bir parcha erlaridan va, umuman, mol-mulkidan ayrilgan dehqonlarning soni tobora oshib boraverdi. O'lkada qashshoqlik xukm surib, xalqning hayoti g'oyatda yomonlashdi. SHu tariqa paxtachilikning rivojlanishi o'zbek xalqiga foydadan ko'ra ko'proq ziyon keltirdi. CHunki unda mustamlakachilik siyosati va milliy zulm o'z ifodasini topgan edi. Paxtachilikni

rivojlantirishga qaratilgan siyosat esa, yuqorida qayd etilgani- dek, o'lkada temir yo'llar, paxta tozalash va yog' zavodlarining qurilishida muhim o'rin egalladi. Sirtidan qaraganda bu holat ijobiy ko'rinsa-da, lekin aslida bu hol chor hukumatining mustamlakachilik siyosatini yanada mustahkamlash va samaradorligini oshirishni ta'minladi. Ayni paytda, 100 minglab kishilarni Rossiyadan ko'chirib kelish imkonini yaratdi. Temir yo'llar esa paxga va boshqa mahsulotlarni ko'p miqdorda uzluksiz olib ketilishini ta'minladi. Bu hol mustamlakachilarni boyligiga boylik ko'shdi.

ФОЙДАЛАНИЛГАН МАНБА ВА АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий ислохатларини чуқурлаштириш йўлида. -Т.: Ўзбекистон, 1995.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 1996. – 364 б.
3. Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. 2-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 1996. – 366 б.
4. Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш давр талаби. 5-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 1997. 384 б.
5. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Т.: Шарқ, 1998. -31б.
6. Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. 8-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 2000. – 528 б.
7. Каримов И.А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. 10- жилд. –Т.: Ўзбекистон, 2001. – 408 б.
8. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. –Т.: Ўзбекистон, 2011.
9. Абдурахимова Н.А., Эргашев Ф.Р. Туркистонда чор мустамлака тизими – Т., 1999.

10. Тарих –шоҳидлиги ва сабоқлари: чоризм ва совет мустамлакачилиги даврида Ўзбекистон миллий бойликларининг ўзлаштирилиши - Т.: Шарқ, 2001.
11. Мусаев Н. XIX асрнинг II ярми – XX аср - Бошларида Туркистонда саноат ишлаб чиқаришнинг шаклланиши. Тошкент: Iqtisod–moliya, 2008
12. Ўзбекистон тарихи (1917-1993 йиллар). – Т.: Ўқитувчи, 1994.
13. Ўзбекистон тарихи (олий ўқув юр்தларининг номутассислик факультетлари талабалари учун дарслик. – Т.: “ЎАЖБНТ” маркази, 2003. -775 б.
14. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон Чор Россияси мустамлакачилиги даврида. –Т.: Шарқ, 2000. - 464 б.
15. Ўзбекистон тарихи фанидан мукамал қўлланма. –Т.: “DAVR PRESS”, 2010.
16. Қурбонова Н. Россия империясининг аҳолини кўчириш сиёсати: Тарих ва таҳлил (Фарғона водийси мисолида). /“Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда” иккинчи Республика илмий анжумани материаллари. Фарғона – 2013
17. Қосимов Б. Миллий уйғониш. –Т.: Маънавият, 2002.
18. Шарафиддинов А., Ҳайдаров О. Янги Марғилон-Фарғона водийсида Подшо Россияси мустамлакачилик маъмурий-бошқарув тизимининг маркази ва таянчи. /“Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда” иккинчи Республика илмий анжумани материаллари. Фарғона – 2013
19. Шарафиддинов А. Фарғона вилояти тарихидан лавҳалар. (XIX аср охири – XX аср бошлари) I – китоб. – Т.: “Наврўз”, 2013.
20. Шамсутдинов Р., Каримов Ш. Ватан тарихи (Ўзбекистон шўролар истибдоди даврида). Иккинчи китоб. –Т: Шарқ, 2010.
21. O`zbekiston tarixi:o`quv qo`llanma / Shamsutdonov R., Mominov X.; ma`sul muharrir S. Inoyatov. – Т.: “Sharq”, 2013.